

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” TA’LIMYO‘NALISHI

“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI

“O‘ZBEKISTONDA ISTIROHAT VA KO‘NGILOCHAR
MUASSASALAR TIZIMINI BOSHQARISH”

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish”
kafedrasining ____ - sonli yig‘ilish
bayonnomasi

“ ____ ” _____ 2014yil

Kafedra mudiri _____

X.Shodiyev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy
faoliyat” ta’lim yo‘nalishi IV-
kurs bitiruvchisi

Boymatov Olimjon Imomnazar
o‘g‘li

Ilmiy raxbar: p.f.n., dotsent
D.Muxammadiyev

Toshkent-2014yil

MUNDARIJA

Kirish

I BOB Dam olish va ko‘ngil ochishni tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari.....

1.1. Dam olish va ko‘ngil ochishning mohiyati va turlari.....

1.2. Xalq bayramlari va xalq sayllarida dam olishni tashkil etish.....

II BOB O‘zbekistonda istirohat va ko‘ngilochar muassasalar tizimini boshqarishning huquqiy asoslari.....

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda 322-sonli “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning mazmun-mohiyati.....

2.2. 2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturining amalga oshirish mexnizimi.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

Kirish.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma’naviy boylik sifatida o‘tib kelayotgan dam olish va ko‘ngil ochish usullari mavjud. Dam olish va ko‘ngil ochishning bir necha xillarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Jumladan, ko‘ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan mehnat faoliyatidan keyingi insonning ham jismoniy, ham ruhiy charchog‘ini chiqarish maqsad qilib qo‘yiladi. Bularga: choyxo‘rlik, oshxo‘rlik, xarifona (xarfana, xalfana), sayr, sayil – dala sayli, tog‘ sayli, bog‘ sayli, gul sayli, suv sayli, do‘stlar davrasi, suhbat va shu kabilar kiradi. Bunday tadbirlarda inson ko‘ngli yozilib, charchoqlarini ma’lum darajada unutadi, kayfiyati ko‘tariladi.

Ma’rifiy-hordiqiy tadbirlar sirasiga kiritiladigan turkum dam olish madaniyatida asosan ma’rifiy jihatga e’tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqliy jarayonlar bilan bog‘liq xususiyatlar talab etiladi. Bo‘sh vaqtda hayot, yashash uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, tajribalarnidostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparchilik, maqolbilarlik, mushoira, bahri-bayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik, g‘azalxonlik, ruboiyxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik va shu kabi ma’rifiy tadbirlar orqali olish mumkin.

Bo‘sh vaqtda sevimli ijodiy mashg‘ulot bilan shug‘ullanish an’analari ham mavjud. O‘zbek xalq an’anaviy ijodiy dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- 1.Og‘zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik, lofchilik kabilar.
- 2.Musiqa - qo‘shiq - musiqa ijro qilish, terma, qo‘shiq, Alla, yalla, laparlar ijro etish.
3. Teatr-tomoshaviy ijod – masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, afsungarlik va hokazo.
4. Amaliy san’at – tikish, to‘qish, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, o‘ymakorlik va shu kabilar.

Bayram-marosim hordig‘i. Hayotdagi muhim hodisalar sanalarini nishonlash jarayonida dam olish. Bayram-marosim hordiqklarini ham o‘z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog‘liq mavsumiy bayram-marosimlar – «Navro‘z», «Sumalak bazmi», «Boychechak», «Lola sayli», «Qizil gul sayli», «Tut sayli», «Suv sayli», «Qovun sayli», «Anor sayli», «Uzum sayli», «Birinchi qor» va boshqalar.

2. Inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar – «Suyunchi», «Ismlash», «Beshik to‘yi», «Ilk qAdam», «Sunnat to‘yi», «Muchal yoshi», «Nikoh to‘yi», «Payg‘ambar yoshi» va hokazo.

3. Diniy marosimlar – «Ro‘za hayiti», «Qurbon hayiti», «Mavlud» va boshqalar.

Ijtimoiy foydali dam olish an‘analariga bo‘sh vaqtda odamlar uchun xayri va foydali xizmatlar qilish – yaqin, qarindosh, ota-ona, ustozlardan xabar olish, kambag‘al, yetim, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, to‘y-ma‘raka, hashar, xayriya ishlarida qatnashmoq, muqaddas joylarni ziyorat qilmoq kabilar kiradi.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish va ularning mazmunli dam olish va xordiq chiqarishlari uchun juda katta qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan; hozirgi kunda respublikamizda 37 ta teatr, 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari, 120 dan ortiq madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat va san‘at saroylari aholining madaniy ehtiylarini qondirishga xizmat qilib kelmoqda. Ko‘ngilochar va istirohat muassasalarining faoliyatini ilmiy-nazariy o‘rganish va tahlil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda ko‘ngilochar va istirohat muassasalar tizimini tahlil etish maqsadida bitiruv malakaviy ishining mavzusi “O‘zbekistonda ko‘ngilochar va istirohat muassasalar tizimini boshqarish” deb nomladik va mavzuning dolzarbligini quyidagi jihatlar asosida ko‘rsatishni lozim topdik.

Birinchidan, O‘zbekistonda ko‘ngilochar va istirohat muassasalarning tarixiy rivojlanishi va uni boshqarish bo‘yicha to‘plangan tajribani o‘rganish va tahlil etish.

Ikkinchidan, Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlarida ko‘ngilochar va istirohat muassasalar tizimini boshqarish holatini tahlil etish.

Uchinchidan, Hozirgi kunda aholining ko‘ngil ochish va dam olishni tashkil etish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Mustaqillik yillarida prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida insonni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasi davlatimizning ustuvor masalalaridan biri sifatida o‘rganildi. Tabiiyki ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda madaniy-ma’rifiy muassasalarning roli katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan madaniy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar va islohotlarni tahlil qilish ishlarini U.Qoraboyev, M.Murodov, O.Nishonovalarning ilmiy va ijodiy faoliyatlarida ko‘rishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning metodologiyasini Madaniy-ma’rifiy sohada faoliyat olib borayotgan olimlarimizning ko‘ngil ochish va hordiq chiqarishga doir qarashlari aks etgan asarlari, O‘zbekiston Respublikasining bu boradagi milliy qonunchiligi, qonunosti hujjatlari, Vazirdar Mahkamasining madaniyat va san’atga doir qarorlari, O‘zbekiston respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat va milliy g‘oya masalalari yoritilgan asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsad: O‘zbekistonda ko‘ngilochar va istirohat muassasalar faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish.

Aholining ko‘ngil ochish va dam olish madaniyatini yuksaltirish.

Ko‘ngil ochish va dam olishni mazmunli o‘tkazish bo‘yicha ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishga uslubiy yordam berish.

Tadqiqotning vazifalari:

-O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar mazmunini odamlar ijtimoiy hayotidan mustahkam o'rin olishiga ko'maklashish;

-Aholining mazmunli dam olish va xordiq chiqarish madaniyatini yuksaltirish;

-Barkamol avlodni tarbiyalashga faol ko'maklashish,

Tadqiqotning obyekti.O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilochar va istirohat muassasalar faoliyatini o'rganish va ilmiy-nazariy tahlil etish.

Tadqiqotning predmeti.Dam olish va ko'ngil ochishning mohiyatini ochib berish, xalq bayramlari va sayllarida dam olishni tashkil etish, O'zbekistonda istirohat va ko'ngilochar muassasalar tizimini boshqarishning huquqiy asoslari tadqiqotning predmeti etib belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari.

1.1. Dam olish va ko'ngil ochishning mohiyati va turlari.

Bo'sh vaqtda, ishdan keyin dam olish — ko'ngil ochish faoliyatining bir qator turlari mavjud bo'lib, bularning ichida: erkin do'stona suhbat, o'yin, havaskor badiiy ijrochilik va ko'ngil ochish tomoshalarini idrok etish eng muhim ahamiyatga egadir.

Erkin do'stona suhbat. O'rtoqlar, tanishlari yoki hatto begonalar bilan osoyishta betakalluf suhbat, yangiliklar, turli masalalar yuzasidan fikrlar almashish — bo'sh vaqtni o'tkazishning zaruriy shakllaridan biridir. Har kungi shunga o'xshash suhbatlar ko'pchilik kishilarda odat tusiga kirib, dam olishning barqaror elementiga aylangan. Bular ayniqsa xarakterli va shovqinli ko'ngil ochishlarini yoqtirmaydigan yoki ularda ishtirok etolmaydiganlar uchun kundalik dam olishning asosiy turiga aylangan.

Bunday aloqadan mahrum bo'lgan kishilar, uni mashaqqatdek his qiladilar. Madaniy tadbirlar tashkilotchilari insonning bu muhim hamda ommaviy ehtiyojini xisobga olishlari lozim.

Kundalik uchrashuvlar madaniyat va aholi dam olish markazlaridan tashqarida ham — mehmonda, hovlida, ko'chada va shu kabi joylarda bo'lib o'tishi mumkin. Bundan, kishilar uchrashadigan joylarini o'zlari topa oladilar, dam olish muassasalari bu haqda tashvish qilmasalar ham bo'ladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Hatto juda oddiy mashg'ulot bo'lgan suhbat xam ma'lum sharoitni, qulayliklarni talab qiladi. Kishilarning kundalik do'stona uchrashuv va suhbatlarga bo'lgan ehtiyojlarini e'tiborga olmay qo'ysak, bu ehtiyoj jamiyat uchun kerakli bo'lmagan shaklda qondirilishi mumkin.

Dam olish vaqtida boshlangan do'stona suhbat doimo uchrashuvchilar uchun ma'lum informatsion qimmatga ega buladi. Odamlar bu yerda o'zlarini qiziktirgan yangiliklarni bilib oladilar, so'nggi hodisalarni muhokama qiladilar, fikr almashadilar. Do'stona suhbatlarning alohida xususiyati erkinlik, bamaylixotirlik, suhbatdoshining fikri, ichki va tashqi chidamlilik, beg'araz, o'zaro qiziqish hamda

o‘zaro iltifotlar hisoblanadi. Bunday suhbatlar o‘z tabiatiga ko‘ra og‘ir, noxush bo‘lmaydi va bunday bo‘lmasligi ham kerak. Suhbatda o‘zaro qiziqish susayishi bilan o‘zaro muloqot tabiiy tarzda to‘xtaydi.

Dam olish jarayonidagi muomala suhbat mazmuniga ma’lum chegaralar qo‘yadi, bu o‘rinda, aftidan jiddiy suhbatlar olib bormaslik, bir mavzuni uzoq muhokama qilmaslik lozim. Dam olish vaqtida keskin bahslashmaslik, suhbatdoshni zo‘rlab fikrdan qaytarmaslik, absolyut diqqatni talab qilmaslik lozim. Bunday suhbatlarda qat’iy mantiqda amal qilmay, bir mavzudan ikkinchisiga ko‘chib, nutqning izchilligiga rioya qilmay gapirish mumkin. Ayrim iboralarning o‘ta tug‘riligi bu o‘rinda unchalik muhim emas, dam olish vaqtida eng avvalo umumiy o‘z-o‘zini ifodalash, to‘planib qolgan taassurotlar bilan almashinish kerak. Bunday suhbatlashuvchi sherikni faqat aqli vaeruditsiyasi uchungina emas, balki u bilan suhbatlashish maroqli bo‘lganligi, u tushunishni va tinglashni bilganligi uchun qadrlashadi. Bu muomala sezilarli madaniy farqlarga yul ko‘yadi, biroq, psixologik yaqinlik albatta bo‘lishini talab qiladi.

Ish muhiti o‘ziga xos bo‘lgan funksional aloqalari bilan ko‘pincha bizga emotsional hayot sohasiga taalluqli bo‘lganlarni to‘liq, tushunish va ifodalash imkoniyatini bermaydi. Shu bilan birga javob reaksiyasi va yaxshilikka hayrixoxlik ko‘pincha faqat maqsadga muvofiqgina bo‘lmay, balki inson uchun zarur hamdir. Shaxsning samimiy hayajonli darajada madaniyat va aholi dam olish markazida amalga oshiriladigan aloqalarida inson o‘zining odamlarga kerakligini, atrofidagi hayotga daxldorligini chuqur his qiladi. Jo‘shqin mehribonlik, begonalarning shodligi va kulfatini xuddi o‘zinikidek sezishga qodirlik «inson insonga do‘st, o‘rtoq va birodar» degan tamoyilning kundalik namoyon bo‘lishining namunasidir.

Erkin do'stona suhbat doimo ma'lum shaxsiy munosabatlarning o'rnatilishi yoki mustahkamlanishi bilan borliq bo'lib, bunday munosabatlar ko'p tomondan kishining umumiy kayfiyatini belgilaydi. Shaxsiy aloqalar ayniqsa o'z oilasini ko'rish ehtiyoji paydo bo'lgan yoshdagi kishilar uchun alohida ahamiyatga egadir. Keyingi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar do'stona munosabatlarni o'rnatishni ham, bo'lajak umr yo'ldoshini axtarishni ham xaqli ravishda to'liqmadaniyat va aholi dam olish markazlari vazifalariga kiritish mumkinligini ishonarli isbotlab berdi.

O'yin.O'yin—ijtimoiy va pedagogik hodisa bo'lib, shaxs ijtimoiy hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda ko'ngil ochish — o'yin mashg'ulotlari bolalar faoliyatining o'ziga xos shakli bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida muhim faoliyat hisoblanadi.

O'yin katta kishilarning hayotida, tabiiyki, bolalar hayotiga qaraganda kamroqo'rinni egallaydi. Uning sabablari va vazifalari ham tubdan o'zgaradi. Biroq, katta kishilarda faoliyatning bu turiga ehtiyoj tamoman yuq bo'lib ketadi degan gap emas, o'yinning o'zi shaxsning rivojlanishiga ta'sir etmay qo'yadi.

O'yin jarayonida inson ijtimoiy mohiyatdagi bir qator, eng avvalo o'zini namoyon qilish va o'zini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Shuningdek, o'yin insonning bilish, kommunikativ, estetik, damolish ehtiyojlarini qondiradi. Dam olishning o'yin shakllaridan maqsadga yo'llangan holda foydalanish orqali tarbiyaviy vazifalar hal etiladi, madaniy boyliklar bilan tanishtirish amalga oshiriladi.

O'yinning o'ziga xos sabablari mavjud. O'yinda ishtirok etishni amaliy zaruriyatlar xam (moddiy maqsadlarga erishish), ijtimoiy majburiyatlar ham talab qilmaydi. Inson o'yinga shodlik va rohat manbai deb qaraydi. O'yin faoliyatiga sabab (motiv) va xatti-xarakat o'rtasidagi murakkab bog'liqlik yotdir. O'yin xarakatlar yig'indisidan iborat bo'lib, inson uchun ular tom ma'nodagi va bevosita mazmuni bilan qiziqarlidir. Faollik bevosita hoxishlardan kelib chiqadi: kishi qandaydir amaliy samara uchun emas, bu uning o'ziga yoqqanligi uchun o'ynaydi.

Har qanday o‘yinning mazmuni ma’lum to‘siqlarni yengish orqali maqsadga erishishni nazarda tutadi. O‘yinning o‘z vazifasi, xatti-xarakat qoidalari, roli bo‘lib, buni asosiy qatnashuvchilar o‘z zimmalariga oladilar. O‘yin o‘z mazmuniga ega: o‘yin davomida kishi xilma-xil aqliy mashqlarni amalga oshiradi, amaliy harakatlarqiladi. Faoliyatning boshka turlari singari o‘yin ham ma’lum xarakat usullarini egallashni talab qiladi.

O‘yinda charchoq unutiladi. Hayajonli vaziyatlar ro‘y beradi, ma’lum sifatlar tarbiyalanadi, yangi bilim va ko‘nikmalar egallanadi. O‘yin faoliyatining ijtimoiy hamda shaxsiy nuqtai nazardan ham qimmatli bo‘lgan asosiy mahsuloti va natijasi mana shundan iboratdir. Biroq o‘yinchilarning o‘zlari uchun o‘yinning bevosita g‘alaba yoki mag‘lubiyat deb tushuniladigan natijasi xam qiziqish va ahamiyatga egadir. Ammo, turmushdagi muvaffaqiyatsizliklardan farqli o‘larok, o‘yindagi mag‘lubiyat tashqi ko‘ngilsizliklar xavfini tug‘dirmaydiva insonni ranjitmaydi.

O‘yinning mazmuni va borishi asosan dam oluvchilarning istaklari xamda qiziqishlariga qarab belgilanadi. Bu yerda ish ma’lum darajada boshqarishni talab etadi, ammo faoliyatning boshqa turlariga qiyoslaganda u maksimal bo‘lib, guyoki zimdan amalga oshiriladi.

Aslini olganda barcha o‘yinlarda musobaqa elementlari: shaxsiy yoki jamoa birinchiligi uchun kurash mavjuddir. Chaqqonlik, kuch, tezlik, topqirlik, zehni o‘tkirlik, bilimdonlik, badiiy talant, texnik saviya, ziyraklik, chiroyli xarakat va shu kabilarni boshqalardan ko‘ra ko‘proq, namoyon qilgan shaxso‘yinda g‘olib chiqadi. Xato qilmaslikka, boshqalardan zaifrok. ko‘rinmaslikka, jamoani og‘ir ahvolga tushirmaslikka intilish ajoyib sport vaziyatini keltirib chiqaradi.

Xatto o‘yin tomoshabinlarsiz o‘tganda ham, xatto kishi yakka o‘zi o‘ynaganda xam u o‘zi bilan o‘zi qiziqarli masala muallifi va shu kabilar bilan xam baribir musobaqalashadi. Musobaqa — o‘yin vaziyatida jismoniy va ma’naviy kuchlarni safarbar qilish sodir bo‘ladi, ruhiy ko‘tarilish vujudga keladi. O‘yindagi muvaffaqiyat o‘z kuchiga ishonch tug‘diradi, kayfiyatni ko‘taradi va umumiy kayfiyatni oshiradi. Musobaqada doimo sodir bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengib,

kishilar jismoniy, irodaviy va aqliy jihatdan chiniqib boradilar. O‘yin – tarixiy tashkil topgan ijtimoiy voqea, mustaqil faoliyat turi, kishiga xosdir.

O‘yin faoliyati juda ham turli-tumandir: o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yinlari, stol o‘yini, doira bo‘lib o‘ynaladigan o‘yin, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari.

O‘yin o‘zi-o‘zini bilish vositasi, o‘yin-kulgi, dam olish, jismoniy va umumiy ijtimoiy tarbiya vositasi, sport vositasi bo‘lishi mumkin.

O‘yin madaniyati elementi sifatida jamiyatni barcha madaniyati va kishilarning har xil extiyohlari bilan rivojlanadi: o‘yin-kulgi, dam olishda, ma’naviy, aqliy va jismoniy kuchni rivojlanishida katta o‘rin egallaydi.

O‘yin faoliyati- nafaqat madaniyatni bir elementi xisoblanadi, balki u bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda ham foydali vosita xisoblanadi. U hardoin maqsadga yo‘naltirilgan va turli-tuman maqsadli yo‘l-yo‘riq hamda asoslangan harakat bilan o‘ziga xos xususiyatni ko‘rsatib turadi. O‘yin faoliyati ko‘proq mehnat bilan umumiylikka ega, ayniqsa bolalik davrida. Biroq o‘yin jarayonida xayotiy extiyohlarni qondirish uchun kishi moddiy boylikni yarataolmaydi.

O‘yin-juda ham quvnoq jo‘shqin faoliyatidir, shuning uchun u yoshlar va bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishda katta boylik kasb etadi. O‘yinni turli-tumanligi katta-kichiklar orasida ayniqsa o‘smirlar va bolalar o‘rtasida eng keng tarqalgani bu harakatli o‘yinlardir. Ular esa ushbu o‘quv qo‘llanma fani xisoblanadi.

Harakatli o‘yinlarni o‘ziga xos fazilati o‘yinni mazmuni harakatni rolini yorqin ifoda qilish xisoblanadi (yugurish, sakrashlar, uloqtirish, otish, to‘pni uzatish va ilib olish, qarshilik ko‘rsatish va b.q). Bu harakatlantiruvchi harakatlanish uni mazmunini asoslab beradi (mavzu, g‘oyasi). U o‘yinda qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida, turli-tuman qiyinchiliklarni, to‘siqlarni yengib o‘tishiga yo‘naltiriladi.

Harakatli o‘yinlarni orasida xaqiqatdan ham (elementar) harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari bilan farq qiladi. Xaqiqatan ham (elementar) harakatli o‘yinlar o‘ynovchilarning o‘zlarini ixtiyoriy ravishda o‘rnatilgan, maqsadga shartli ravishda

erishishga yo'naltirilgan, o'zida ongli ravishda tashabbuskorlik faoliyatini mujassamlashtirgan bo'ladi. O'ynovchilarning maqsadga erishishda faol harakatlantiruvchi harakat talab qiladi, uni bajarishi o'ynovchilarni o'zlarining ijod qilishiga va tashabbuskorligiga bog'liqdir (nishonga tezda yugurib borish, nishonga tez otish, "Raqibiga" tez va epchillik bilan yetib olish yoki undan qochib ketish va x.k).

Harakatlantiruvchi harakatli o'yin qoidalari bilan belgilanadi, uni bajarilishini o'yinchilardan tashabbuskorlik xulqini o'rnatilgan qoidalar chegarasida mos kelishini talab qiladi. O'yin qoidasi maqsadga erishish yo'lida o'yindagi qiyinchiliklarni va to'siqlarni xarakterini aniqlaydi. Qoidani soni va murakkabligi jixatdan o'yinni o'zining murakkabligiga bog'liqdir.

Xaqiqatdan ham harakatli o'yinlar o'yin qatnashchilaridan maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi. Shuning uchun o'yin qoidasi o'yin qatnashchilarini va rahbarlarni (o'qituvchilar) o'zlari o'tkazilayotgan o'yinni sharoitiga qarab uni o'zgartirib boradilar. Chunki unda o'ynovchilarni aniq belgilangan soni, maydonni aniq katta kichikligi yo'q, shuningdek asbob-anjomlar ham o'zgartirib turiladi (bulava yoki kegli, voleybol yoki oddiy to'p, kichik koptoklar yoki qum solingan xaltachalar, gimnastika yoki oddiy tayoqchalar va x.k).

Sport o'yinlari – bu harakatli o'yini eng yuqori bosqichidir. Bunda o'yin qoidasi qa'tiy belgilangan bo'lib, ular maxsus maydonga va jixozlarni talab qilinadi. Sport o'yini uchun o'ziga xosligi o'yin jarayonida ma'lum taktikada o'zini tutishi va murakkab harakat texnikasi xisoblanadi. Bu esa o'yin qatnashchilaridan maxsus tayyorgarlikni, trenirovkani talab qiladi. Har bir sport o'yini belgilangan o'yinchilarni soniga, ma'lum maydoncha, asbob – anjomlari xisoblanadi.

Ayrim sport o'yinlarida ayrim o'yinchilarda mutaxassisligi bo'lishi zarurdir (xujumga, ximoyaga, darvozabon va b.q). Sport o'yinlari u yoki bu o'yinda qa'tiy qoidaga mos ravishda maxsus xakamlik qilishni talab qiladi. Ayrim sport o'yinlarida o'yin qatnashchilari tarkibiga qarab birnecha marta (o'quvchilar yoki kattalar, erkaklar yoki o'smir qizlar) o'zgartirilishi mumkin.

Sport o'yinlari sport turi xisoblanadi. Bular bo'yicha har xil darajadagi musobaqalar o'tkaziladi. Natijada sport o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda eng yaxshi o'yinchilarga sport razryadlari va unvonlar beriladi.

Ayrim harakatli o'yinlar (Masalan, "Lapta", "Voleybol" va b.q) mashg'ulotni maqsadi, ko'rsatmasi va uni tashkil qilish usullariga bog'liq holda, ayrim xolatlarda xaqiqatdan ham o'zi xarakteriga qarab harakatli (elementlari) o'yin deb yuritiladi, boshqalari esa sport o'yinlari sifatida o'tkaziladi. Masalan, o'yin qatnashchilari tasodifan yig'ilib qolganda (dam olish o'yinlarida, sayrlarda) ular xaqiqatdan ham harakatli o'yin xarakteriga ega bo'ladi.

Harakatli o'yinlar yoshlarni, bolalarni umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida foydalaniladi, shuningdek sport o'yinlariga va boshqa sport turlariga va "Alpomish" va "Barchinoy" test meyorlarini topshirishga tayyorlash vositasi bo'lib ham xisoblanadi.

Harakatli o'yinlar o'ziga xos bo'lishi mumkin (yakka tartibda), u xammadan ko'proq tez-tez bolalarni o'zlari tomonidan (to'p o'yini, arg'amchi bilan, chambarakni aylantirish va b.q) tashkil etiladi. Ular tarbiyachi pedagog va yetakchilar tomonidan bolalarni faol dam olishini tashkil qilish maqsadida foydalanishi mumkin (tanaffusda, kuni uzaytirilgan guruxda va boshqa xolatlarda).

Jamoa bo'lib o'ynaladigan (gurux) harakatli o'yinlar aloxida pedagogik ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ularda o'ynovchi guruxlar, sinflar, zvenolar, bo'limlar, sport seksiyasida shug'ullanuvchilar qatnashadilar.

Jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlar har doim musobaqalashish elementi o'ziga xos bo'lib (har bir kishi o'zi uchun yoki har bir kishi o'z jamoasi uchun), shuningdek belgilangan maqsadga erishishida qiziqishni uyg'otishda bir-biriga yordam berish, o'zaro yordamdan iborat bo'ladi. Jamoa o'yinlari uchun o'ziga xosligi shundaki, o'yinda hamma vaqt xolatni o'zgarib turishi, o'yinchilardan tezlik raksiyasini talab qilinadigan bo'ladi. Shuning uchun o'yin jarayonida o'zaro munosabat hardoim o'zgarib turadi: har bir kishi o'zi uchun yoki o'zining jamoasi uchun "Raqiblarini" nisbatan eng qulay xolatni yaratishga intiladilar.

Harakatli o'yinlar bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Ularni aloxida o'yinlar bo'yicha o'tkazish mumkin, o'yinga qo'yilgan vazifa taxminan bir xil sinflar bir xil yoshdagi o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Biroq harakatli o'yinlar majmuasi bo'yicha musobaqa o'tkazishni pedagogik qimmatini shundaki, bunga har xil jismoniy sifat va malakalarni tarbiyalashga yordam beradigan, turli-tuman o'yinlar kiritiladi. Harakatli o'yin majmuasi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqada har xil yoshdagi bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalar qatnashishlari mumkin, biroq o'yindagi vazifa har xil bo'lishi mumkin.

Harakatli o'yin bo'yicha o'tkaziladigan musobaqadagi bu juziy o'zgarish, sport o'yinlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarga ko'ra ular bir muncha farq qiladi, chunki sport o'yinlarida qa'tiy belgilangan sharoitda va qoida bo'yicha o'tkazishni talab qilinadi.

Har bir harakatli o'yin o'zining mazmuni shakli (tuzilishi) va metodik xususiyatiga egadir. Harakatli o'yinlarni mazmuni quyidagilardan iborat: mavzu yoki mazmun (ifodali yoki shartli o'ylab qo'yilgan ish, o'yin rejasi) maqsadga erishish uchun o'yinga kiradigan, harakat va qoidadir.

Harakatli o'yinlarni shakli - qo'yilgan maqsadga erishish usullarini keng tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi, o'yin qatnashchilarini harakatini tashkil qilishdir. O'yin qatnashchilari bir xil o'yinlarda o'zining shaxsiy qiziqishlariga erishish uchun yakka yoki gurux bo'lib harakat qiladilar boshqalarida esa o'zlarining jamoalarini, o'zlarining komandalarini qiziqishlarini ximoya qiladilar. Shuningdek o'yin uchun o'ynovchilar har xil tuzilishda yoki shakldaturadilar (sochilib yoki tarqalib, doirada, safda, qatorida).

O'yin shakli mazmuni bilan bog'liq ravishda kelib chiqadi.

O'yinni metodik jixatdan o'ziga xos xususiyatiga uni mazmuni va shakliga bog'liqdir. Harakatli o'yinlar metodik jixatdan o'ziga xos bo'ladi: a) jonliligi; b) chegaralangan qoida bo'yicha maqsadga erishishda mustaqil harakat qilish; v) qoida bilan mos ravishda ijodiy tashabbuskorlik bilan harakat qilish; g) o'yindagi aloxida rollarni bajarish, uni mazmuniga muvofiqligi, o'yin qatnashchilarini jamoadagi ma'lum darajadagi o'zaro munosabati o'rnatiladi; d) to'satdan o'yinda

o'zgarib qolish xolati bu esa o'yinchilardan tashabbuskorlikni, tez reaksiyani talab qiladi; ye) o'yindagi musobaqa elementlari o'yinda jo'shqinlikni (emotsionalnost) oshiradi va kuchni to'liq sarf qilishni talab qiladi; j) o'yinda kelib chiqadigan "Kelishmovchiliklarni" xal etishda qarama-qarshi tomonlar manfaatlarini bir-biriga zid qo'ymoq esa, yuqori darajadagi jo'shqinlik tonusiniyaratadi;

Harakatli o'yinlar nafaqat vosita bo'ladi, balki bolani jismoniy tarbiya metodi bo'lib ham xisoblanadi. Tarbiyada o'yin metodini tushunchasi o'yin metodikasini o'ziga xos xususiyatini inkor qiladi, ya'ni bu boshqa tarbiya jixozlaridan uni metodi munosabatda bo'lishida farqlanadi (musobaqa elementi, syujetni mavjudligi, maqsadga erishishni turli-tuman usullari, nisbatan mustaqil harakati).

O'yin metodi ayniqsa murakkablashgan o'zgartirilgan sharoitda harakatni kompleks takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya va o'yin metodi vositasi sifatida jismoniy sifatlarni takomillashtirishga va tarbiyalashga yordam beradi. Bundan tashqari harakatli o'yinlarda gimnastika, yengil atletika, chang'i va boshqa sport turlari mashg'ulotlarida aloxida malaka va ko'nikmalarni hamda tabbiy harakatlarni mustaxkamlaydi va takomillashtiradi.

Kundalik dam olish – bir kun davomida, ya'ni ish vaqti tugagandan keyingi faoliyatni o'z ichiga oladi. Kundalik dam olish faoliyatlari ichidagi keng tarqalganlari toza havoda sayr qilish, radio va televideniye dasturlarini eshitish va tomosha qilish, kitob mutolaa qilish, badan tarbiya bilan shug'ulanish kabilarni kiritish mumkin.

Haftalik dam olish- shanba va yakshanba kunlari bajaradigan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu dam olish kunlari tavsiya etiladigan faoliyatlarga shahar chekkasidagi sayilgohlarga chiqib hordiq chiqarish, qarindosh – urug', yoru do'stlardan xabar olish, tomorqa ishlari bilan shug'ullanish nazarda tutiladi. Kundalik va haftalik dam olish mazmunli va maroqli o'tishida madaniyat va san'at muassasalari va sport to'garaklari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Odatda xursandchilik, shodlik va quvonchga boy dam olish lahzalari

bayram kunlari namoyon bo‘ladi. Unga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi, eng yaxshi liboslar kiyiladi, lazzatli taomlar tayyorlaniladi. Aynan shu kunlarda televideniye, radio, madaniyat va san’at muassasalari o‘zlarining eng yaxshi dasturlarini namoyish etadi.

Har yilda bir marta dam olish - har yil qonuniy ravishda haq to‘lanib, hordiq chiqarishga imkoniyat beruvchi ta’tillardir. Bunga sog‘likni mustahkamlash uchun sanatoriylar, turistik bazalarda dam olish va shu kabilar kiradi.

Bo‘sh vaqt shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyoti uchun bebaho ne‘matdir. Chunki bo‘sh vaqt ijtimoiy boylik hisoblanib, shaxs ma’naviyatining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Pirovard natijada bo‘sh vaqt mehnat unumdorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. “Yaxshi dam – mehnatga xamd”, deydi xalqimiz. Agar inson qanchalik yaxshi va unumli mehnat qilsa, shunchalik samarali va mazmunli dam olishga ehtiyoj sezadi. O‘z navbatida shu narsa etiborga molikki, yaxshi hordiq chiqara olmagan kishi ko‘ngildagidek mehnat qila olmaydi. Shunday ekan bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish kishilarning mehnat jarayonida sarf bo‘lgan kuch quvvatlarini tiklash, sog‘liklarini mustahkamlash, ruhiyatlarini tetiklashtirish demakdir.

Fan-texnika taraqqiyoti, kompyuter texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, qo‘l mehnati tobora mexanizatsiyalashgan va bo‘sh vaqt tobora ko‘payayotgan hozirgi paytda aholining madaniy dam olishini tashkil etish muhim masalalardan biriga aylandi. Binobarin, bo‘sh vaqt zamirida shaxs va butun jamiyatning rivoji, kishilarning ma’naviy boyishlari, sog‘lom bo‘lishlari umrlariga umr qo‘shilishi uchun, ular hayotini yanada mazmunli va rang barang qilish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud.

Madaniy dam olish insonning bo‘sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo‘lishda ma’naviy- estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog‘lom bo‘lishida muhim omillardan hisoblanadi. Dam olishning bunday shakliga keyingi vaqtda juda katta e’tibor berilmoqda. Bu esa o‘z navbatida dam olish madaniyatini yuksaltirish imkonini bermoqda.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad — kishilarning

madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlash bilan birga, ularni har tomonlama ravnaq topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Sotsiologlarning hisob-kitoblaricha, asosiy ishdan tashqari shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyat turlari 500 taga yetar ekan. Ularga zaruriy vaqtdagi yumushlar ham kirib, soch oldirishdan hammomga tushishgacha, davolanishdan mehmondorchilikka borishgacha, tomorqa uchastkalardagi ishlardan uy hayvonlarini parvarishlashgacha, uyni ta'mirlashdan to baliq ovigacha bo'lgan faoliyatlar ham kiradi. Bo'sh vaqt faoliyatlarining 150 tasidan dam olish faoliyatisifatida foydalansa bo'lar ekan (ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug'ullanish, sport bilan mashg'ul bo'lish, do'stlar bilan o'zaro muloqotda bo'lish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish va hokazolar kiradi).

Madaniy dam olish va bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularni maxsus turkumlash kerak bo'ladi.

Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish va madaniy dam olish shakllarini shartli ravishda turkumlarga bo'lish mumkin. Har bir turkumda dam olish shakllari murakkablashib, samaradorligi ortib boradi.

Birinchi turkumga dam olishning eng oddiy shakllari — kam harakatli hordiq chiqarish charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin karavotda yotib charchoq chiqarish, ko'cha, parklar, xiyobonlardagi o'rindiqlarda, uyda divan, stulda o'tirib hordiq chiqarish, ochiq havoda sayr qilish, mehmonga borish kabilari kiradi. Bu hordiq chiqarishni ba'zida «faoliyatsiz dam olish» ham deyishadi. Vaqti-vaqti bilan shunday «passiv» dam olib turish ham kerak. Lekin asosiy maqsad passiv dam olishga vaqtni kamroq sarflab, ko'proq vaqtni aktiv dam olishga qoldirish darkor.

Ikkinchi turkum dam olish shakllari madaniy-ma'naviy boyliklarni egallash, ya'ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio va televideniye dasturlarini tinglab, tomosha qilish, teatr, kinoteatrlarda namoyish etiladigan kinofilm, spektakl va badiiy-ommaviy sahnalarni tomosha qilish kabilardir.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, avloddan avlodga ma'naviy

boylik sifatida o‘tib kelayotgan an’anaviy dam olish usullari mavjud. An’anaviy dam olishning bir necha xillarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Jumladan, ko‘ngil yozish tadbirlari. Bu tadbirlarda asosan mehnat faoliyatidan keyingi insonning ham jismoniy, ham ruhiy charchog‘ini chiqarish maqsad qilib qo‘yiladi. Bularga: choyxo‘rlik, oshxo‘rlik, xarifona (xarfana, xalfana), sayr, sayil – dala sayli, tog‘ sayli, bog‘ sayli, gul sayli, suv sayli, do‘stlar davrasi, suhbat va shu kabilar kiradi. Bunday tadbirlarda inson ko‘ngli yozilib, charchoqlarini ma’lum darajada unutadi, kayfiyati ko‘tariladi. Ma’rifiy-hordiqiy tadbirlar sirasiga kiritiladigan turkum dam olish madaniyatida asosan ma’rifiy jihatga e’tibor qaratiladi. Bunda maxsus bilim, tajriba, mushohada kabi aqliy jarayonlar bilan bog‘liq xususiyatlar talab etiladi. Bo‘sh vaqtda hayot, yashash uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka, tajribalarni dostonxonlik, ertakxonlik, lofchilik, topishmoqtoparchilik, maqolbilarlik, mushoira, bahri-bayt, munozara, aytishuv, masalchilik, kitobxonlik, g‘azalxonlik, ruboiyxonlik, qasidaxonlik, chistonxonlik va shu kabi ma’rifiy tadbirlar orqali olish mumkin.

Bo‘sh vaqtda sevimli ijodiy mashg‘ulot bilan shug‘ullanish an‘analari ham mavjud. O‘zbek xalq an’anaviy ijodiy dam olish turlarini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Og‘zaki ijod – baxshi-shoirlik, askiyachilik, ertakchilik, lofchilik kabilar.
2. Musiqa - qo‘shiq - musiqa ijro qilish, terma, qo‘shiq, Alla, yalla, laparlar ijro etish.
3. Teatr-tomoshaviy ijod – masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, afsungarlik va hokazo.
4. Amaliy san‘at – tikish, to‘qish, kashtachilik, kulolchilik, misgarlik, o‘ymakorlik va shu kabilar.

Bayram-marosim hordig‘i. Hayotdagi muhim hodisalar sanalarini nishonlash jarayonida dam olish. Bayram-marosim hordiqilarini ham o‘z navbatida quyidagicha tasnif qilamiz:

1. Tabiat bilan bog‘liq mavsumiy bayram-marosimlar – «Navro‘z», «Sumalak bazmi», «Boychechak», «Lola sayli», «Qizil gul sayli», «Tut sayli»,

«Suv sayli», «Qovun sayli», «Anor sayli», «Uzum sayli», «Birinchi qor» va boshqalar.

2. Inson hayoti bilan bogʻliq boʻlgan marosimlar – «Suyunchi», «Ismlash», «Beshik toʻyi», «Ilk qAdam», «Sunnat toʻyi», «Muchal yoshi», «Nikoh toʻyi», «Paygʻambar yoshi» va hokazo.

3. Diniy marosimlar – «Roʻza hayiti», «Qurbon hayiti», «Mavlud» va boshqalar.

Ijtimoiy foydali dam olish anʼanalariga boʻsh vaqtda odamlar uchun xayrli va foydali xizmatlar qilish – yaqin, qarindosh, ota-ona, ustozlardan xabar olish, kambagʻal, yetim, kasal, qariya, ojizlarga yordam berish, toʻy-maʼraka, hashar, xayriya ishlarida qatnashmoq, muqaddas joylarni ziyorat qilmoq kabilar kiradi.

Oʻzbek xalqining turli tabaqalari, guruhleri orasida ham oʻziga xos dam olish anʼanalari boʻlib, bolalar, qizlar, erkaklar, ayollar, yoshi ulugʻlarning madaniy dam olish shakllari bir-biridan farq qiladi.

Dam olish shakllarining turi, maʼrifiy, ijodiy dam olib, hordiq chiqarish maskanlari, usullari qanchalik koʻp boʻlsa, uning manbalari, uslublari, yoʻl-yoʻriqlari ham shunchalik koʻp. Ularning bitta umumiy xususiyati, oliy maqsadi bor, u ham boʻlsa dam olish orqali hordiq chiqarish bilan bir qatorda maʼnaviy boyish, yoshlarga oʻrnak, namuna koʻrsatish yoʻli bilan ularni tarbiyalash, xalqimizga munosib vorislarni voyaga yetkazish.

Ajdodlarimiz asrlar davomida:

- yosh avlodni bilimli, uquvli, ilm-maʼrifatli boʻlishi, kasb-hunar egallashi uchun sharoitlar yaratgan;

- turli qadriyatlar, rasm-rusmlar, odatlarni amalga oshirgan;

-rang-barang harakatli, aqlni oʻstirish oʻyinlarini oʻylab topgan, hayotga joriy etgan, bola tarbiyasida «Sogʻ tanda – sogʻlom aql» shioriga amal qilgan;

- sogʻlik, salomatlikning yoshlikdan qadriga yetish, vujud sogʻligi, aql-tafakkur sogʻligi, tiniqligi, turmush, oila, muhit sogʻlomligi haqida qaygʻurmoq lozim. Bunda albatta, dam olib hordiq chiqarish, maʼrifiy-ijodiy, aqliy-ruhiy charchoqlik, toliqishning oldini olishga ham alohida ahamiyat bergan.

Salomatlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash, saqlab rivojlantirish, kamolga yetkazish bilan bog‘liq behisob udumlarimiz, odatlarimiz orasida ma‘rifiy-ijodiy hordiq chiqarish, dam olish alohida o‘rin tutishi bejiz emas. Bular:

1. Qadim-qadimlardan ota-bobolarimiz, momo-onaxonlarimiz farzandlarining pokiza bo‘lishlariga alohida e‘tibor berar ekanlar, ozodalik va dam olishga eng asosiy diqqatni qaratganlar.

Ma‘rifiy-ijodiy dam oldirish orqali (uning turlari, tizimlari, usullari juda ko‘p) yoshlarda, xususan, bolalarda xushdamlik, quvnoqlik, dil-dildan kula olishlik, yaxshi kayfiyat, vaqtichog‘lik, tetiklik, bardamlik, eng asosiysi ma‘naviy sog‘lomlik ruhida tarbiyalashdek omillarni qo‘llaganlar. Demak, sog‘lom, quvnoq, tetik tanda ruhiy sog‘lik bo‘lishini esdan chiqarmagan holda ish tutganlar.

2. Hazil-mutoyiba, askiya, lutf, qiziqchilik, xirgoyi, shirin so‘z, shirin muomala, chiroyli, yoqimli so‘zlarni qo‘llash, amalga oshirish orqali bolada ma‘rifiy-ijodiy dam olish, hordiq chiqarishni, demak jismoniy va aqliy sog‘lom bo‘lib o‘sishni ta‘minlaganlar. Ma‘rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarishning uddasidan chiqa olganlar, uni to‘g‘ri, maqsadga muvofiq tashkil eta olganlarida sog‘lom avlodning yetishib chiqishi va yuksak fazilatlarga ega bo‘lishi tajribalar sinovidan o‘tgan haqiqat ekanligi barchaga ayon. Xalqimiz: «Kuling, kulish umrni uzaytiradi», «Yaxshi kayfiyat – yaxshilikka olib boradi, yomon kayfiyat yomonlikka olib boradi»,-deb bejiz aytmagan.

3. Xalqimiy ma‘rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish orqali yosh avlodni turli xil asabbuzarlikdan, arzir-arzimas gap so‘zlar, mayda-chuyda ishlardan jig‘ibiyron bo‘lish, dilxunlikka berilish, ruhan ezilish kabi inson umrini qisqartiruvchi holatlarga yo‘l qo‘ymagan. Buning davosi ham ma‘rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish bo‘lgan. Bunda xalq og‘zaki ijodi namunalari, dostonlar aytish, qo‘shiqlar kuylash, ertaklar aytish, maqollar, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar, tez aytish, bolalar folklorining xilma-xil janrlaridan foydalanish, xalq milliy o‘yinlarini o‘ynatish, adabiyot, san‘at, tarix va boshqalarni qo‘llay bilish orqali, badiiy so‘zni ishga solish, yaxshi ishlarni amalga oshirish bilan bajarilgan.

Xalqimizning odaticha, ko'pchilikning tasdiqlashicha, kulgu shifobaxsh chashmadir. Kulgu – sog'lik, yaxshi kayfiyat, tetiklik va bardamlik, jismoniy bardam-baquvvatlik, aqliy-ruhiy tetiklik, hayotga, kelajakka umid-orzu, yashashdan qanoat hosil qilish, totuvlik, ishonch, e'tiqod omilidir. Kulgu nafaqat sog'lom avlod taqdirida, balki ijtimoiy faoliyatda, ma'naviy- ijodiy hordiq chiqarib dam olish, ruhni tetiklashtirib, hayotga muhabbatni oshirish, yashash istagini kuchaytirishdir. Ha, kulgu, yaxshi kayfiyat oqilona tashkil etilgan ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam oldirish – har qanday odamni yashartiradi, umriga umr qo'shadi, ishda unumni oshiradi, oila, jamiyatda yaxshi muhit yaratadi. Uning yana bir xususiyati, jahlni tushiradi, yomon kayfiyat, holat, vaziyatni yaxshilik tomon buradi. Yomon kayfiyat, jahl esa – inson umrini egovlaydi, bevaqt xazon bo'lishiga olib keladi. Kulgu, lutf, yaxshi kayfiyatni ta'minlovchi ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib, dam olishning ijtimoiy ahamiyati, umrimiz uzayishi, sog'lom avlod yetkazishdagi hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan ahamiyati ham ana shunda.

4. Xalqimizda «Sayohat – tanga rohat», «Yaxshi dam mehnatga hamdam», «Bir nafaslik rohat Sulaymon taxtidan afzal», «Yaxshi dam olding – ishingga unum solding» kabi o'nlab maqollar, iboralar, ko'pdan-ko'p afsona va rivoyatlar va boshqalarda dam olib, hordiq chiqarishning kishi salomatligi, ruhan tetikligi, aqliy va jismoniy kamoloti borasidagi ahamiyati teran ifodalangan.

Shunday qilib, dam olib, hordiq chiqarishning foydali tomonlari xalqona odobnomaning sahifalarida behisob. Sog'lom avlod, komil avlod tarbiyasida dam olib, hordiq chiqarishning, ya'ni ma'rifiy-madaniy hordiqning ko'rinishlari taxminan shunday:

1. Oilada ma'rifiy-ijodiy hordiq chiqarib dam olish. Buning usullari, tizimlari behisob.
2. Jamoa joylarida ma'rifiy-ijodiy dam olib, hordiq chiqarish. Buning ham o'ziga xos yo'llari, uslublari juda ko'p.
3. Sayohatlar, turizm yo'llari bilan ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.
4. Yakka tartibda, jamoa bo'lib ma'rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish.

5. Ziyorat joylarga, qadimiy maskanlar – ko‘hna shahar qoldiqlari, qal’alar, qo‘rg‘onlar qadamjolarga borib dam olib hordiq chiqarish.

6. Tabiat qo‘yniga – tog‘u toshlar, qir-adirlar bag‘riga, soylar, ko‘llar, daryolar bo‘ylarida, so‘lim go‘shalar va boshqa joylarda ma’rifiy-ijodiy dam olish va hordiq chiqarish.

7. Madaniyat va istirohat bog‘larida, hayvonot bog‘larida, botanika bog‘lariyu san’at, adabiyot, tarix, etnografiya, tabiat, sport, tibbiyot, turli fanlar, kasbhunarga oid muzeylar, ko‘rgazmalar, anjumanlarda ma’rifiy-ijodiy dam olib hordiq chiqarish va hokazo.

1.2. Xalq bayramlari va sayllarida dam olishni tashkil etish.

Halq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqeadir. Chunki, bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi. Barcha davrlarda bayramlarga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ularning darajasi turlicha bo'lgan. Masalan, SHO'rolar davlati o'z davrigacha mavjud bo'lgan barcha azaliy bayramlarni inkor etib, Yangi sovet bayramlarini hayotga joriy etdi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston rahbariyati eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov farmonlari asosida «Navro'z», «Ro'za hayit», «Qurbon hayit»lar rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan ikki bayram – «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O'qituvchi va murabbiylar kuni ham alohida bayram sifatida rasman qabul qilindi. O'z navbatida O'zbekiston rahbariyati SHO'rolar davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni ta'qiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Bayramlar qadim davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi ko'zgudir. Bayram insoniyatning o'zi bosib o'tgan yo'llarni chuqur anglashi, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlardan mag'rurlanishi, ertangi kunga umid bilan qarashiga yordam beradi.

Bayramlarni nishonlamaydigan shaxs, oila yoki jamoani topish qiyin. Har bir millat va davlatning ham o'z bayramlari bo'ladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, avloddan – avlodga o'tib, takomillashib, bebaho merosga

aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi tarixning «sovuq shamollari» - bosqinchilik siyosati va turli hukmdorlar tazyiqiga uchrab, nohaq yo'qotilgan, ayrimlari esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilatlaridan ajralsa-da, butunlay yo'qolib ketmagan. Ba'zilar esa xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

Arxeologik qazilmalarda topilgan osori atiqalarda, qadimgi qo'lyozmalar, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ijodi namunalarida hozirgacha saqlanib qolgan ko'hna odatlarning aks etganligini ko'ramiz.

Bayramlar vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan «shodlik surati» baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar vaqtning o'ziga xos o'lchovi hisoblangan.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida talabga javob bermay qolgan an'ana va bayramlar asta-sekin unutila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo'lgan an'analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro'z, Qovun sayli, Lola sayli, Hosil to'yi, Sumalak sayli va hokazo bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda.

Navro'zni bayram qilish O'rta Sharq va O'rta Osiyoda qadimda tarkib topgan an'anadir. U insonning juda qadimdan shakllana boshlagan ma'lum udum, urf-odatlari, kundalik turmush ehtiyojlari, atrof muhit, tabiat omillari bilan munosabatlari zaminida vujudga kelgan. Asrlar o'tishi bilan bu urf odatlar mamlakatlar, xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanishi zamirida keng yoyila borgan, mazmunan boyigan hamda ma'lum o'lkalar doirasida tarqalib mustahkam an'anaga aylangan.

Ko'hna va navqiron Navro'z bayrami O'rta asrlarda O'rta Osiyoning turli joylarida o'ziga xos shaklda uyushtirilgan. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib to o'n besh kungacha cho'zilgan. Masalan, Xorazmda Navro'zdan oldin joylarda maxsus yig'in bo'lib, unda bayram raisi tayinlangan, tantanalar, tomoshalar, sayillar o'tkazish tartibi haqida so'z borgan.

Navro'z bozor qoshidagi joylarda, katta maydonlarda, shahar chekkalaridagi sayilgohlarda uyushtirilgan. Odatda, bayramning birinchi kuni quyidagicha o'tgan:

ertalab bayram boshlangandan keyin dorbozlar va polvonlarning chiqishlari, kun o'rtasida sozandalar, navozandalar va boshqa san'atkorlarning ijrolari, kechki payt esa sayillar, xalq o'yinlari, bazmlar uyushtirilgan.

Navro'z bilan bog'liq tomosha kun sayin avjga chiqqan. Har xil musobaqalar, ko'pkari(uloq), poyga bayramning ko'rki bo'lgan.

Navro'z kunlari katta bozorlar (savdo-sotiqalar) tashkil qilingan va shirin taomlar tayyorlangan. Odatdagi ovqatlardan tashqari do'lma, yalpiz, ko'k piyoz va boshqa ko'katlar solingan taxsus taomlar pishirilgan. Navro'z taomlari orasida sumalak alohida o'rin tutgan.

«Sumalak sayli» (yoki «Sumalak bazmi») Navro'zning «shohona taomi» - sumalak tayyorlash, sumalakxo'rlikka bahishlangan marosimdir.

Sumalakni asosan ayollar tayyorlab, uni pishirish jarayonida suhbatda bo'lishgan, hikoyalar, ertaklar va latifalar aytishgan. Vaqti kelganda o'yin-kulgi qilishgan. Sumalak tayyor bo'lgach, uni pishirishda qatnashganlar va mahalla ahli sumalakxo'rlik qilish uchun «sumalak sayli»ga taklif etilganlar. Sumalak sayli ishtirokchilari childirma chalib raqsga tushishgan, qo'shiqlar aytib, xursandchilik o'tilishgan. Sayil hazil-mutoyiba, o'yin-kungi bilan o'tgan. Asrlar osha nishonlanib kelayotgan «sumalak sayli» hozirgi kunda ham kishilarni o'zaro hamkorlik va birdamlikka chorlaydi.

Davlat arboblari «Navro'z» bayramini ta'qiqlashga ko'p urinishgan. Bu bayram kishilarning ozodlikka intilishini kuchaytirishi, ularni birlashtirishi mumkin, deb xavotir olishgan. Shuning uchun «Navro'z» istilochilar saroylarida, amaldorlar va din rahnamolari davralarida rasmiy bayram sifatida nishonlanmagan. Lekin bu tazyiqqa qaramay «Navro'z» xalq orasida bayram qilinavergan. Shu boisdan ayrim shohlar va amirlar keyingi asrlarda o'zini xalqparvar ko'rsatish maqsadida «Navro'z»ni bayram sifatida nishonlashga majbur bo'lishgan.

O'rta asrlarda «Navro'z»ning falsafiy-badiiy mazmuni yanada kengaygan. Bu bayram haqida o'davrning deyarli barcha allomalari o'z asarlarida ijobiy mulohaza bildirishgan. O'rta asrlarda «Navro'z»ning xalq turmushi va ma'naviy hayotidagi mavqei, fazilati va xosiyati haqida qomusiy bilim egalari Abu Rayhon

Beruniy, Firdavsiy, Mahmud Qoshg'ariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy o'z asarlarida yozishgan.

Beruniy «Navro'z – olamning boshlanishi» desa, Firdavsiy «Navro'z – bayramlar shohi» deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: «Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lsun Navro'z» deydi. Qadimda yaratilgan yozma yodgorliklarda, jumladan, At-Tabariyning «Ta'rix», Al-Mas'udiyning «Muruj az-zahab», Hakim Termiziyning «Solnoma», Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Abu Rayhon Beruniyning «Al-osor al-boqiya» va «Geodeziya», Abul Qosim Firdavsiyning «Shohnoma», Umar Xayyomning «Navro'znoma», Abul Fazl Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy» asarlarida Navro'z uyg'onish, yuksalish, go'zallik bayrami sifatida ulug'langan. Navro'zning kelib chiqishi haqida ko'plab afsonalar va asotirlar mavjud.

Firdavsiyning «Shohnoma»sida yangi yil (Navro'z) vujudga kelishi shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarni kasbga o'rgatadi. Temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to'qitadi, uy, saroylar bunyod qiladi, tabiblik sirlarini ochadi. Kema yasatadi. Bog' bunyod qiladi. Bir kuni ishlari gurkirab, bog'i mevaga kirganda, taxt yasatib unda osmonga ko'tariladi. Bu haqda Firdavsiy quyidagilarni yozadi:

Taxt ko'kda charx urar misoli quyosh,
Farmondor o'tirar unda irg'ab bosh.
Barcha jam odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo'lib shukuh – baxtiga.
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,
Shu kuni Yangi yil – bayram deyishar.

Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalarga qaraganda, yilboshi – Navro'z bayramini o'tkazish an'anasi miloddan avvalgi VI asrlardan e'tiboran keng tarqalgani ma'lum bo'ladi. YA'ni, bu qadimiy bayramning tarixi yigirma olti asrdan ortiqroq vaqtga egadir.

Qadimiy Navro'z odatlari ichida, odamlarning hayotimiz shirin bo'lsin degan ma'noda bir-biriga shakar va shirinliklar hadya etishi; gullar taqdim qilishi,

bir-biriga suv sepishi kabi o'yinlar keng tarqalgan. Odatlar zahirida xalqning Yangi yil hosildorlik, mo'l-ko'pchilik yili bo'lsin, degan ezgu orzusi yotadi.

Quyoshning Hamal burchiga kirishi, kecha bilan kunduzning barobar kelishi yil boshi hisoblangan. «Yangi kun» nomi bilan atalgan Navro'z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an'anasi ham bo'lgan. Shu kuni uy-joylarni tozalash, ko'kat va gullar bilan bezash, ota-ona, yaqin kishilar bilan diydorlashish, marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish xalq orasida odat tusiga kirib qolgan.

Navro'z kuni odamlarning bir-biriga suv sepish an'anasi Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholi o'rtasida saqlanib qolgan. Uni nishonlash vaqti uch kundan tortib, to dalalarda ekin boshlanguncha davom etgan. Navro'zdan oldin joylarda maxsus yig'inlar bo'lib, unda bayram raisi tayinlangan, tomoshalar, sayillar, musobaqalar o'tkazish tadbirlari rejalashtirilgan. U odatda, boshlanishidan bir necha kun ilgari tayyorgarlik ko'rilgan. Navro'z bayramidan 15 kun oldin bug'doy yoki arpa undirishga qo'yilgan va uning maysasidan bayram kunlari sumalak qilingan. Yoshlar, qariyalar kechasi bilan uxlamasdan ertak va hikoyalar aytishib, o'yin-kulgu bilan yaxshi niyatlar tilab, sumalakni kavlab, kutib olishgan.

Navro'z – dala ishlari mavsumining boshlanishiga bag'ishlangan bayram. Navro'zning so'nggi kunida dalaga qo'sh chiqarish va yerga urug' qadash marosimi o'tkazilgan. Bu marosim har joyda turlicha: «Ekish sayli», «Qo'sh oshi», «Qo'sh chiqarish» («Qo'sh-moy») deb nomlangan. Mazkur an'anadan ijobiy foydalanish natijasida hozirgi davrda respublikamizning ko'p joylarida «Chigit qadash» kabi marosimning yangi zamonaviy shakli vujudga kelgan.

«Navro'z» zamonga mos ravishda mazmunan boyib, shaklan rivojlanib bordi. Respublikaning ilg'or olimlari, yozuvchilari va madaniyat xodimlari Navro'z qadimdan davom etib kelayotgan haqiqiy xalq bayrami ekanligini, uning mohiyati tabiat qonuniyatlari bilan bog'liqligi va uni eng yaxshi an'analar asosida taraqqiy ettirish lozimligini ta'kidlaydilar. Buning natijasida Navro'z haqiqiy xalq bayrami sifatida yanada keng nishonlana boshladi. Bu an'ana hozirgi kunda o'zining asosiy mohiyatini saqlagan holda yangi mazmun va zamonaviy jihatlar

bilan boyib bormoqda Chunonchi, hamma yerda Navro‘zning ramziy obrazlarini gavdalandiruvchi «Bahorxonim» bayramning asosiy qahramoni hisoblanadi. Odatda Navro‘z Bahorxonimning o‘z dugonalari bilan bezatilgan ochiq mashinada aholi yashaydigan ko‘chalarni karnay-surnay sadolari jo‘rligida aylanishi bilan boshlanadi. Bahorxonim qishloq yoki mahallalarning markaziy maydonlarida to‘xtab, o‘lkaga bahor kirib kelgani bilan aholini tabriklaydi. Hammani Navro‘z bayrami tantanalariga taklif qiladi, shuningdek, joylarda o‘yin-kulgilar uyushtiriladi.

Bayramning ikkinchi qismi madaniyat va istirohat bog‘larida bayram qatnashchilarining Bahorjon, Paxtaoy va uning dugonalarini tantanali kutib olishi bilan boshlanadi. So‘ng ular bezatilgan minbarga taklif etiladilar. Bahorxonim bayram qatnashchilariga shodlik, do‘stlik va obodonchilikka oid uchta shart aytadi. So‘zining nihoyasida: «Turarjoyimiz yashil, obod, go‘zal va ko‘rkam bo‘lishi uchun har bir kishi bittadan daraxt ko‘chati o‘tqazsin!» deb barchani ko‘chat ekishga chorlaydi va o‘zi birinchilar qatorida belgilangan joyga nihol ekadi. So‘ngra boshqalar ham navbati bilan turli xil daraxtlar o‘tqazadilar.

Tantananing uchinchi qismida bahor, Yangi hosil yili boshlanishiga bag‘ishlangan tematik programma, ommaviy tomosha yoki teatrlashtirilgan konsert namoyish qilinadi. Bazm uyushtiriladi. Buning uchun sahna bayramga mos qilib bezatiladi va uning tevaragiga stol-stullar qo‘yiladi.

Bayramning teatrlashtirilgan dasturida bahorga bag‘ishlangan o‘yinlar, mehnatkashlarni ruhlantiruvchi turli mushoiralar, quvnoq qo‘shiq va raqslar, dramatik asarlardan lavhalar, askiya va intermediyalar o‘rin oladi.

Navro‘z bayramining to‘rtinchi qismida ommaviy sayillar, mahalliy xalq o‘yinlari, sport musobaqalari (kurash, otchopar o‘yinlari, shaxmat, shashka va yarmarkalar) tashkil etiladi.

Respublikamizda nishonlanayotgan Navro‘zning umum tomonlari ko‘p bo‘lsa-da, u turli joylarda mahalliy an’analar asosida turlicha nishonlanadi.

Xususan, Farg‘ona viloyatining ko‘pchilik qishloqlarida «Navro‘z» bayramini tashkil qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. O‘sha kuni hovlilar, uylar,

ko'chalar tozalanadi, bezatiladi. Kechki payt esa kishilar bir-birlarinikiga mehmonga borishadi, keksalar izzat-hurmatda bo'ladi, ota-onalar, ustozlar va tabarruk kishilardan xabar olishadi, o'zaro arazlashgan, gina-kudurat qilganlar yarashtiriladi va hokazo. Navro'zga bag'ishlangan asosiy tomoshalar, sayillar, musobaqalar, ommaviy o'yinlar va bazm uyushtiriladi.

Shahrisabzda Navro'z g'oyaviy-badiiy jihatdan yuqori saviyada teatrlashtirilgan tarzda o'tkaziladi. O'rta Osiyoning buyuk allomalari Firdavsiy, Beruniy, Umay Xayyom, Navoiy, Zavq'iy va Muqimiyning Navro'z haqidagi fikrlari, misralaridan, lirik parchalardan o'rinli foydalanilganligi uchun ham bayram yuksak g'oyaviy-badiiy mazmun kasb etadi.

Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy va Urgut rayonida Navro'z tabiat qo'ynida, tog' yon bag'irlarida uyushtirilishi ayniqsa diqqatga sazovordir.

Tabiat qo'ynida o'tkaziladigan Urgut Navro'zi o'zining go'zalligi, ommaviyligi bilan diqqatni jalb etadi. An'anaga ko'ra, bayramning rasmiy ochilishi marosimidan keyin mushoira boshlanadi. So'ng badiiy havaskorlik va sirk jamoalari o'z san'atlarini namoyish etadilar. Kun bo'yi musiqa, sho'x qo'shiqlar tinmaydi. Masxarabozlar, dorbozlar va polvonlarning san'ati yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otadi. Yigitlar milliy kurash bo'yicha bir-birlari bilan kuch sinashadilar. Eng yaxshi chavandozlar shu yerning o'zida – tog' etagida ko'pkari chopadilar.

Forish rayonining tog' yon bag'irlaridagi qishloqlarda nishonlanadigan Navro'z xalq milliy taomlari tayyorlash san'ati borasidagi o'ziga xos ko'rikka aylanib ketadi. Navro'z bayram qilinadigan joyga har kim o'zi havas bilan tayyorlagan taomlari bilan keladi. Navro'z dasturxonida «shohona» taom – sumalakdan tashqari barak (ko'k ildizdan tayyorlangan), qoqi(salati), yupqa (quymoq), go'ja oshi, un oshi, kesgan oshi, kulchatoy, qatlama, qotirma, g'ilmindi, shirvoz kabilarni tatib ko'rish mumkin. Navro'z malikasi Bahorxonim hay'at a'zolari bilan eng yaxshi pazandalarni aniqlab, ularni ma'naviy taqdirlashadi.

Navro'zning yana bir ajoyib xislati bor: uning ochilishi marosimini ko'rish mumkin-u, ammo bayramning yopilishini sezish amri mahol, chunki u ko'chalar

va uylarda uzoq davom etadi. Navro‘z har bir kishining qalbida bir yilga yetadigan yorqin taassurot, tetiklik qoldiradi. Navro‘z bayramidan keyin odamlar bardamlashgan va kuch-quvvatga to‘lgan holda yaxshi kayfiyat, ko‘tarinki ruh bilan ishga kirishadilar.

Ajdodlarimiz madaniy-ma’naviy qadriyatlarining gultoji hisoblangan Navro‘z bayrami qadimiy an’analarimizni bugungi zamondoshlarimiz estetik qarashlari bilan bog‘lovchi muhim vosita sifatida elimizga xizmat qilib kelmoqda.

Navro‘z bayramini xalqimizning asriy tajribalari, xususan, mustaqillik yillarida bu bayramni o‘tqazishda to‘plagan tajribalar asosida umumxalq shodionasi tarzida o‘tqazish maqsadga muvofiqdir. Bayramning asosiy tadbirisayl-tomoshani dam olish kuni (bayram kuni) sifatida belgilangan 21 Mart yoki bahorning kelishi (ob-havo)ga qarab bir oy mobaynida o‘tqazish mumkin. Chunki qadimdan ushbu bayram haftalab, hatto butun oy davomida o‘tqazib kelingan.

Tabiatda tun va kunning teng bo‘lishi, bahorning kirib kelishi, dalalarda ish boshlanishidan darak beruvchi, xalq tomonidan keng nishonlanuvchi Navro‘z bayramining keyingi qismi ommoviy sayillar, xalq o‘yinlari, sport musobaqalariga (kirish, otchopar o‘yinlari, shaxmat-shashka kabilarga) ulanib ketadi.

O‘zbekistonning turli tumanlarida o‘tqazilgan Navro‘z bayrami tantanalarida turli an’analari, o‘ziga xos xususiyatlar borligi ko‘zga tashlanadi. Ammo barcha joyda ayni shu bayramga xos umumiy jihatlar mavjud:

1. Navro‘z bayramining tantanali ochilish marosimi va katta bayram tomoshasi.
2. Xalq sayli: ko‘riklar, musobaqalar, tomoshalar va hokazo.
3. Navro‘z bayrami ko‘rik musobaqalar g‘oliblarini taqdirlash marosimi.

Navro‘zni tiklash jaroyonida uni tashkil qilish tajribasi ham vujudga keldi. Bayramga tayyorgarlik ko‘rishdan oldin tashkiliy qomita tuziladi, uning bevosita tashkiliy ishlarini olib borish jarayonida qishloqlar, shahar mavzelari, mahallalar va ko‘chalari, turarjoylar, uylar, hovlilar o‘rtasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha tanlov o‘tqaziladi.

Navro‘z go‘zallik, tabiat va mehnat bayrami bo‘lgani uchun ochiq havoda, tabiat qo‘ynida. YA’ni madaniyat va istirohat bog‘lari, yirik maydonlar, stadionlar, otchoparlar, dam olish zo‘nalari, sayilgohlarda o‘tqaziladi. Madaniyat va istirohat bog‘lari bayramona bezatiladi. Erta tongdan bayroqlar, shiorlar va gullar bilan bezatilgan bir necha ochiq mashina ko‘chalar bo‘ylab yura boshlaydi. Birinchi mashinada karnay-surnay sadolari yangrab, u katta xalq bayrami boshlanishi haqida “xabar” berib boradi. Ikkinchi mashinada Navro‘z malikasi- “bahorxonim” , bayramning ramziy qahramolari: “Navro‘zbobo” (yoki “Bobodehqon”), “Momoyor”, “Paxtaoy”, “Xosiljon” va bayram ruxiga mos liboslar kiygan yosh yigit-qizlar aholini bayram bilan olqishlab boradilar. Ularning ko‘chalardan bu tarzda tantanali o‘tishi o‘lkaga bahor kelgani va yangi hosil mavsumi boshlanishidan darak beradi. Uchinchidan esa mashinada mehnat ilg‘orlari, faxriylar, badiiy havaskorlik jamoalari qatnashchilari, bayramona kiyingan yigit-qizlar barchani baxor bilan qutlab o‘tadilar. Kichik aholi punktlarida bayram sayri mashinalarsiz, piyoda, o‘ziga xos namoyish shaklida o‘tadi. So‘ng bayram mushoirasi o‘tkazilib, undan avval sharq va o‘zbek mumtoz shoirlarining Navro‘zga, bahorga bag‘ishlangan she‘rlari yangraydi. Keyin mahalliy shoirlar o‘zlarining tabiat, bahor bayramlari, mehnat to‘g‘risidagi sherlarini o‘qishadi. Mushoira kuy-ko‘shiqlarga ulanib ketadi. “bahorxonim” davraga Bobodehqon va “Momoyor”ni taklif etadi. Ular barchani bayram bilan tabriklab yaxshi tilaklar bildirishadi. “Navro‘z tabassumi” epizodida Nsriddin Afandi va qiziqchilar latifa aytib, askiya qilishadi. So‘ng “Bahorxonim” o‘z istaklarini qo‘yidagicha bildiradi: “Navro‘z bayrami yangi bahorni kutib olish bilan birga tabiat go‘zalliklarini e‘zozlash, saqlash, boyitish, ularni tarannum etish bayrami hamdir. Istardikki, mana shu marosimda hozir bo‘lgan har bir inson o‘zidan bog‘ qoldirsa. Ana shunda yurtimiz yanada ko‘rkamlashib, bog‘-rog‘lar o‘lkasiga aylanadi”.

Ko‘ngil ochish tadbirlari ichida xalq sayllari, ommaviy tomoshalar muhim o‘rin tutadi. Madaniyat va istirohat bog‘larida an’anaviy sayillarni o‘tqazishni yanada takomillashtirish, ayniqsa, asirlar davomida sayqallanib kelgan eng xalqona milliy an’analarimizni tiklashga ilmiy-metodik jihatdan ko‘maklashish maqsadida

yaratilgan mazkur tavsiyanomaning asosiy maqsadi xalq sayillarining mohiyati va asosiy turlari to'g'risida qisqacha ma'lumot berishdan iboratdir. Tavsiyanomaning eng muhim jihati unga madaniyat va istiroxat bog'larida o'tkazilishi tavsiya etilayotgan xalq sayillariga bag'ishlangan "Navro'zni sog'ingan navro'zga yetsin", "Asal sayli", "Samarqand nonlari", "Palov sayli", "Mehrijon bayram sayli" kabi tadbirlarning ssenariylari ilova qilinganligidir. Bu seyenariylar madaniyat va istiroxat bog'larda an'anaviy xalq sayillarini tashkil qiluvchi va o'tkazuvchi mutasaddi mutaxassislar uchun foydadan xoli bolmaydi.

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga yezgu va ulug' maqsadlar qoyib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqtamiz.

Biz o'z taqdirimizni qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asirlar davomida orzu qib kutgan ozod, yerkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda yerishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani, unday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ota-bobolarimizdan bizga qoldirilgan boy umid, urf-odat, rasim-rusim, an'ana va xalq sayillarini asrab avaylab, uni bugingi zamondoshlarimiz badiiy-estetik qarashlari bilan uzluksiz ravishda ijodiy boyitib borish yosh avlod tarbiyasining yeetakchi omillaridan biridir.

Mustaqillik sharofati bilan urf-odat, marosim, xalq sayillari va bayramlarining tarixiy ildizi, ularning xalqimiz madaniy hayotidagi o'rni o'rganila boshlandi, qadriyatlarimiz ulug'landi. Bu borada e'lon qilingan risola va maqolalar bayramlarning ayrim muammolarnini tadqiq etishni taqozo etadi. Qadimgi va hozirgi bayramlarning paydo bo'lishi, tarixiy rivojlanishi, muammolari haqida maxsus monografiya, ilmiy-ommobop risolalari, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish olimlarimiz oldidagi sharaflı vazifadir. Chunki xalq o'z Vatanida paydo

bo'lgan, ajdodlari nishonlab kelgan va hozirgi paytda nishonlanayotgan bayramlarning tarixi va an'analarini bilmog'i kerak. Bu, ayniqsa, ziyolilar, o'qituvchi va talabalar, madaniyat xodimlari, bayram va tadbirlar tashkilotchilari uchun juda zarur. Mazkur risola mamlakatimizda bayramlarga, xalq sayillariga bo'layotgan katta etibor va ehtiyoj asnosida tayorlandi.

Eng qadimgi davirlardan bayramlar inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zero, ularsiz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning ham eng qadimiy davirlardan shakllana boshlangan, avloddan avlodga o'tib, takomillashib, bebaho merosga aylangan xalq sayillari ko'p. Sayillar xalq xayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha chuqur ildiz olib kelmoqda.

Azaldan mehmondo'st sanalgan o'zbek xalqining bayramlari boshqa boshqa ellar bilan tarixiy-madaniy aloqalar jarayonida rivoj topgan va bevosita ularning bayramlariga ta'sir etgan hamda ular ta'sirida boyigan. O'zbek xalq sayillarining eng diqqatga sazovor tomonlaridan biri ularning tabiat va mehnat bilan bog'likligidir. O'zbek xalq sayillarining bir qator qadriyatlari mavsumiy mehnat faoliyati bilan bog'lik bo'lgan. Qadimdan ajdodlarimizning har bir faslga xos an'analar tizimi shakllanib kelgan. Ular orasida erta baxorda-mehnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda-hosil yig'ishtirishdan avval, kuzda-hosil to'plangandan so'ng va qio'da-dalalar "uyquga ketib" mehnatkashlarning bo'sh vaqti ko'payib, madaniy dam olishga bo'lgan ehtiyoji tufayli uyushtiriladigan odat, marosim, sayl, bayramlar xalq hayotida muhim hodisa hisoblangan. Asirlar davomida avloddan avlodga o'tib, an'anaga aylangan "Gul sayli", "Qovun sayli", "Uzum sayli", "Non sayli", "Qovoq sayli", "Palov sayli", "Asal sayli" kabi marosim va bayramlar dehqonlar hayoti, turmushi, mavsumiy mehnat jarayonida va manaviy olamida muhim rol o'ynab, yoshlarning ekologik ongini shakllanishda tabiat boyliklarini qadirlash, avaylab-asrash, muayyan yil fasillarida vujudga keladigan tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, mehnatning qadriga yetish, insoniylikni ulug'lash kabi vazifalarni bajarishda yaxshi xizmat qilgan.

Madaniyat va istirohat bog'larida xalqimizning qadimiy sayillari hamda an'anaviy bayramlarini o'tqazish borasidagi amaliy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida tuzilgan mazkur "Tavsiyanoma"ni tayorlashda nomoddiy madaniy merosimiz durdonalari tahliliga doir ilmiy adabiyotlar va manbalardan ijodiy foydalaniladi.

Qizil gul sayli

Qizil gul sayli- har yili ko'klamda – qizil gullar ochilgan paytda an'anaviy tarzda o'tqazilib kelingan sayil. Tabiatning ko'klamga uyg'onishi bilan bog'liq bu an'anaviy xalq sayilining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri xorazimliklar orasida qadimdan urf bo'lib kelgan. "Qizil gul" sayli har yil bahorda Xiva shaxri yaqinidagi Bavoris bobo qabristonida bo'lib o'tgan. Bu bayramda aholining barcha tabaqasi – yoshlar ham, bolalar ham, kattalar ham qatnashishgan. Yosh qiz-jvonlar mozor yaqinidagi yo'lakdan sayilgoh tomon yo'l olishgan. Ularni kuzatib turgan yigitlar o'z sevgililariga olma, anor, gul otishgan. Kidir go'sht, boshqa birov guruch, yana kimdir yog' olib kelib, sayilgohda osh pishirishgan. Xalq og'zaki ijodiyotida qizil gul sevgi va oila timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu bahoriy mrosim zvmirida o'lib-tiriluvchi tabiat kultrlari haqidagi qadimiy mifologik qarashlar yotadi (Snesarev G.P. Relikto domisulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S.206).

"Qizil gul " saylida yigitlar tom boshida turgan qiz-juvonlarga turli xil rangdagi pishirilgan tuxum, shuningdek, olma, anor otganlar. O'zlari ko'ngil qo'ygan qizlarga shirinlik, mayiz va holva tuhva etganlar. Odatda bunday sovg'alar yosh bolalar orqali yetkazilgan. Qizlar ham yigitlarni ana shunday hadyalar bilan saylashgan, sayilda qatnashgan ayollarning ham, erkaklarning ham qo'llarida gul bo'lgan. Ular chakkalariga, ro'mollariga, belbog'lariga gul qistirib qo'yganlar. Sayil kun bo'yi xursandchilik, shodiyona bilan davom etgan. "Qizil gul " sayli xalqimizning yilboshi – Navro'z bayrami bilan bog'liq marosilari tizimining an'anaviy uzvlaridan biri bo'lib, tabiatning ko'klamgi uyg'onishi, yangi mehnat yilining boshlanishi, hosildorlik va baraka tilash tantanasi sifatida o'tkazib kelingan.

Suv sayli

Suv sayli juda katta ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Bu bayram yordamida hayot manbai bo'lmish suvni qadrlash, e'zozlash, tejash, tabiatni himoya qilish bilan bog'liq ekologik tarbiya ishlarini olib borish mumkin. Masalan, suvni nihoyatda qadrlaydigan ajdodlarimiz an'analarini asrab-avaylamaslik tufayli suvni bekorga isrof qilish illatlari ko'paydi. Azaldan suvga tupurmaydigan xalqimiz hayotida suvga axlat, chiqindi tashlashdek salbiy qusurlar paydo bo'ldi. Agar qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari ko'z tushmaydigan chekka joylarda cho'milishgan bo'lsa, keyingi o'n yilliklar ichida yevropaliklar ta'sirida kishilarimiz ochiqchasiga (yarim yalong'och) chhmiladigan bo'lishdi. Masalan, Toshkentdagi Milliy bog', Yoshlar ko'li, G'alaba bog'i, Rohat-Baxt dam olish zo'nalari, Anhor bo'ylari va shahardan tashqaridagi Toshkent dengizi, Chorbog', Oqtosh ko'li, chirchiq daryosi kabi joylarda cho'milish kishilar uchun dam olish tadbirlaridan biriga aylandi. Mazkur yillarda hatto o'ziga xos suv bayramlari – cho'milish mavsumining ochilishi va yopilishiga bag'ishlangan ommoviy-madaniy tkadbirlar o'tqazilgan. 1994 yil bu bayramni tiklash uchun harakat bo'ldi. Respublika "Ma'aviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, Toshkent davlat madaniyat instituti O'zbekiston televideniyasi bilan hamkorlikda Toshkent Roxat-Baxt dam olish oromgohi ko'lida ilk bor bu qadimiy bayramni nishonladi. Suv saylida tomoshabinlarni suv bilan kutib olinishi, qadimiy "Suv ma'budalari"ning chiqishlari, suvga bag'ishlangan she'r, maqol, hajviya, raqs, qo'shiqlarning yangrashi, folkler-etnografik dastalar ijrosida suvga bag'ishlangan marosimlar (jumladan, Sust xotin namoyishi, ko'lga gulchambarlar oqizilishi, "Suv parisi" ning kutib olinishi va ohirida uni kuzatib qo'yilishi kabilar) tadbirda ozgina xos fayz berdi. Suv sayli juda katta ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Bu tadbir yordamida hayot manbai bo'lish suvni qadrlash, ye'zozlash, tabiatni himoya qilish bilan bog'liq ekologik tarbiya ishlarini olib borish mumkin.

Qovun sayli

Poliz mahsulotlari pishganda hosilini yig'ishtirib olish munosabati bilan o'tqaziladigan bayramlar orasida Qovun sayli alohida o'rin tutgan.

Qovun sayli o'rtasrlarda katta tantanalar bilan o'tqazilgan. Sho'ralar davrida Qovun sayli milliy an'ana sifatida taqiqlangan bo'lsa-da, u ba'zi payitlarda o'tqazilgan. Jumladan, 1924 va 1927 yillarda Qovun sayli nishonlangan. 30-50 yillarda esa bu bayram o'tqazilmay qo'ydi. XX asrning ikkinchi yarimida Toshkent shahrida va Respublikamizning boshqa joylarda Qovun saylini o'tqazish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Mustaqillik davrida bu bayram muntazam ravishda o'tqaziladigan bo'ldi. Yendilikda zamonaviy qovun sayli O'zbekistondagi hosol bayramlari ichida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu bayram poliz mahsulotlari pishganda nishonlangan. Qovun saylining o'tqazilish usullari ham boshqa hosil bayramlariga o'hshaydi. Unda ham qovun-tarvuzlarning eng yaxshi navlari namoyish etilib, ko'rgazmali tanlovlar, ko'riklar o'tqaziladi. Eng yaxshi qovun navlari yetishtirgan mirishkorlar maxsus mukofotlar bilan taqdirlanadi. Qovun saylining diqqatga sazovor jihati unda-qovun tarvuz va poliz ekinlari mahsulotlari yarmarkalari tashkil etilishidir.

Keyingi paytlarda Qovun sayli Guliston, Toshkent madaniyat va istrohat bog'larida yaxshi uyushtirilmoqda. Chunonchi, Toshkent shahrining Bobur, Ulug'bek istrohat bog'larida o'tqaziladigan qovun sayli shaharliklarga manzur bo'lib qolgan. Ulug'bek bog'ida bu tantana karnay-surnay sadolari bilan boshlanadi. Bog' darvozasi oldida Toshkentliklar Sirdaryo viloyati mirishkorlarini va bayramga kelgan mehmonlarni tantanali ravishda gullar bilan kutib oladilar.

Bayramning asosiy qahramoni "Bobodehqon" o'zi yetishtirgan eng katta va shirin qovunni so'yib, qatnashchilarga ulanib chiqadi. Bu ramziy odat bayram boshlanganidan darak beradi.

So'ngra "bobodehqon" va boshqa qahramonlar (Xo'ja Nasriddin, Quvnoq Xo'ja, Qovunboy, Tarvuzjon) birgalikda bog'da sayr qiladi. Markaziy maydondagi ochiq sahnada bo'lgan ochilish tantanasida bayram qahramonlari Qovun sayli an'analari, qishloq va shahar ahli o'rtasidagi azaliy do'stlik hamda bu yilgi mehnat mavsumi natijalari haqida so'zlaydilar. Shundan keyin, "Bobodehqon" to'planganlarga ikki kunlik bayram – Qovun sayli ochilganini e'lon qiladi. Tuli

xalqlarning qo‘shiq va raqislari, askiya, intermediyalardan iborat teatrlashtirilgan tomosha ko‘rsatiladi. Uni “Qovunboy” va “Tarvuzjon” olib borishadi. Bayram qatnashchilari polvonlar chiqishlarini tomosha qilishlari yoki maydonida estrada ansambli jo‘rligida o‘yinga tushishlari mumkin.

Yozgi estrada maydonida navbati bilan badiiy xavaskorlik jamolari konsert berishadi, qo‘g‘irchoq teatri spektakl ko‘rsatadi. Kechqurun qiziqarli kinofilmlar namoyish qilinadi. Turli xil taomlar, shirinliklar, ichimliklar qo‘yilib, sharqona dasturxon bezatiladi. Bayram vaqtida turli navli qovun va tarvuzlar savdo ko‘rgazmasi tashkil qilinadi.

Sayil tashkilotchilari yosh kelin-kuyovlarni sahnaga taklif etib, ularni eng shirin qovun bilan mehmon qiladilar. “Bobodehqon”: “Sizlar nikoh qayd qilingandan so‘ng hayotingizni birinchi kunini eng shirin qovunni totib ko‘rish bilan boshladingiz, hayotingiz doimo shirin bo‘lsin!”-deb tilak bildiradi.

O‘rta osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovunlarning dovrug‘i dunyoga taralgan. Shu sababli, Qovun sayli faqat Respublikamizdagina emas, balki O‘zbekiston poliz mahsulotlari olib boriladigan joylarda ham tashkil etilgan.

Agar poliz mahsulotlari (qovun, tarvuz)dan mo‘l hosil yetishtiriladigan joylarda Qovun sayli o‘tqazish an‘ana tusini olayotgan bo‘lsa, uzum yetishtiriladigan joylarda Uzum sayli (masalan, Urgutda), anor yetishtiriladigan hududlarda Anor sayli (masalan Quvada), bog‘dorchilikka ixtisoslashgan, olma yetishtirishda mashhur bo‘lgan joylarda Olma sayli (masalan, Namanganda) kabi bayram –sayillar o‘tqazilishi ham an‘anaga aylangan.

Mehrjon bayram sayli

Qishloq xo‘jalik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan barcha kasb egalari-paxtakoru g‘allakor, sohibkoru pillakorlar hayotida hosilni yig‘ishtirib olish munosabati bilan o‘tqaziladigan marosim va bayramlar azal-azaldan alohida o‘rin tutgan. Dehqonlar qishloq xo‘jalik ishlarining tugallanishini qadim zamonlardan biyon to‘y, sayil va bayram sifatida nishonlab kelishgan.

Yoz oxiri, kuz boshi- baxmal mavsumi bayram va marosimlarga juda boy boʻlgan. Xalqimizda bu mavsum pishiqchilik, toʻqchilik davri deyilgan. Yoz oxiri va kuz boshida bogʻ sayli, qovun sayli, olma sayli, uzum sayli, anor sayli, mehrjon bayrami, xazonrezgi sayri, xirmon(hosil) toʻyi kabi koʻplab bayram marosim tadbirlari oʻtqazilgan.

Xalq oʻyinlaridan danak, yongʻoq oʻyinlari, argʻimchoq uchish kabilar sevilib oʻynalgan. Kech kuz-qish boshida yogʻingarchilik boshlanib, yer yumshaganda qoziq, oshiq, tosh oʻyinlari odat tusiga kirgan. “Uloq” ham kech kuzda dehqonchilik ishlari tugaganidan soʻng avjiga chiqqan. “Mehrijon” eng qadimgi kuz bayramlaridan biri boʻlgan.

Ajdodlarimizning asosiy bayramlaridan biri boʻlib kelgan “Mehrijon” keyingi ming yil ichida alohida bayram sifatida keng nishonlanmay qoʻyilgan boʻlsa-da, u butunlay yoʻqolib ketmadi. “Mehrijon” kuz va hosil bayramlariga boʻlinib ketdi.

“Mehrijon” bayrami kuzgi teng kunlikni taʼkidlab, bir tomondan koinot va yerga jon ato etib turgan quyoshni qadrlashga daʼvat qilgan boʻlsa, ikkinchidan, barchani qish gʻamini yeyishga undagan.

Endilikda koʻpgina qadimiy bayramlar kabi “Mehrijon”ni ham tiklash gʻoyasi oʻrtaga tashlana boshladi. Bu muammo ommoviy axborot vositalarida koʻtarildi. Bu qadimiy anʼana dastlab Tojikistonda qayta tiklandi. Dushanbedagi eng katta oʻyingoh(stadion)da “Mehrijon” nomli katta ommaviy tomosha oʻtqazilishi Oʻrta Osiyo bayramlari tarixida ulkan voqea boʻldi. Bir yildan soʻng qadimiy “Mehrijon” Oʻzbekistonda ham oʻtkazildi. “Mehrijon”, Toshkent shahar Markaziy bolalar istrohat bogʻida “Uzum sayli” asosida oʻtkazildi. Bayram tashkilotchilari (V.Aminov, Oʻ. Tohirov, SH. Otaboyv va boshqalar) bu tadbirni katta “bogʻ sayli”ga aylantirib yuborishdi. Shundan keyin “Mehrijon” Respublikamiz boʻylab keng “qanot” yozdi: 1990 yilda Toshkentning “Tojiyev” va “Mevazor” mahallalarida, Samarqandning “Registon” maydonida, Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida, Qashqadaryoning Yakkabogʻ shahrida

“Mehrijon” bayrami zo‘r shodiona sifatida nishonlandi. Bu bayram har bir joyda o‘ziga xos tarzda o‘tqazilishi mumkin.

“Mehrijon” bayramini qo‘yidagi tarzda o‘tqazish mumkin:

- I. Qism- Muqaddima.
- II. Qism- bosh tantana.
- III. Qism- “Mehrijon” sayli.
- IV. Qism- Oilaviy mehrijon.

“Mehrijon” olamga nur, harorat va hayot berib turgan “Bobo quyosh”ga bo‘lgan minnatdorchilikimizni aks ettiradi. U koinot, tabiatni chuqurroq tushunishga undaydi. “Mehrijon” ona-Yerni ardoqlash, dehqon mehnatini e‘zozlashga da‘vat etadigan, rahm-shafqat, saxovat, mehr-muruvvatni ulug‘laydigan xalq bayrami bo‘lib qoldi.

Jizzax shahridagi “O‘rta” yoshlar madaniyat va istrohat bog‘ida

“Asal-shifo” mavzusida o‘tqazilgan “Asal sayli”

Saylning asosiy qismi “O‘rta” yoshlar madaniyat va istrohat bog‘ida bo‘lib o‘tadi. Sahna har-xil gullar, sharlar bilan bezatiladi.

Sahnaning old qismi “Asal sayliga xush kelibsiz”, asalning shifobahshligi, uning xususiyatlarini aks ettiruvchi pannolar bilan bezatiladi. Asalari yashiklarini tashish uchun moslashtirilgan tirkama va uning atrofiga asalari yashiklari yarim oy shaklida terib qo‘yiladi. Shuningdek, asal ko‘rgazmasi uchun zaruriy ko‘rgazma rastalari, stol-stullar va boshqalar tayyorlanadi, ularning ustiga turli idishlarga joylangan asal namunalari terib qo‘yiladi. Har bir ko‘rgazma oldida asal olish uchun moslashtirilgan kiyimlarda bittadan asalchi turadi.

Shahardagi 10 ta mahallaga aholida joy ajratiladi va ular o‘z faollari bilan belgilangan joylarda asaldan tayyorlangan shirinlik mahsulotlari, turli taomlar, shuningdek, asal bilan tayyorlangan tabiiy dorivorlar yarmarkasini tashkil etadilar.

Sahnaga ovoz kuchaytirgich, audio-video moslamalar o‘rnatilib, shay holatga keltirib qo‘yiladi.

Sayil o‘tqaziladigan joyda malakali mutaxassislar bilan ta’minlangan tez tibbiy yordam avtomashinasi navbatchiligi tashkil etiladi. Sayil davomida jamoat tartibini saqlash uchun zaruriy choralar belgilab olinadi.

Tadbirning asosiy g‘oyasi.

Viloyatimizdagi asalarichilik bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarning faoliyatini omma o‘rtasida keng targ‘ib qilish va ularning mehnatini qadrlash, viloyatimiz aholisini toza va sifatli asal bilan ta’minlash, asalning har xil turi hamda shifobaxsh va foydali xususiyatlari haqida ularning bilimlarini boyitish tadbirning asosiy g‘oyasini tashkil qiladi .

Soat 10:00 gacha sayil o‘tqazish uchun kollej, maktab va kutubxona jamoalari o‘zlaridagi mavjud mahsulotlar bilan ko‘rgazmalar, shuningdek, sayilga tashrif beruvchilar uchun salqin ichimliklar, yengil nonushta, shirinliklar savdosi tashkil etiladi. Sayilga taklif etilgan mehmonlar, jamoat va davlat tashkilotlari vakillari, faxriylar, barcha shahar va tuman hokimligi vakillari maydonda joylashtirilgan o‘rindiqlardan joy olishadi. Mahalliy vaqt bilan soat 10:00 da butun maydon uzra “Chorlov” musiqasi yangraydi . Musiqa fonida boshlovchi qiz chiqib keladi.

Boshlovchi: Assalomu-alaykum hurmatli mehmonlar, asal sayli ishtrokchilari, davrvmiz ko‘rki bo‘lgan aziz o‘kuvchi yoshlar, mahalla faollari hamda davramiz qatnashchilari! Biz sizlar bilan Jizzax shahridagi “O‘rda” yoshdar madaniyat va istrohat bog‘ida “Asal-shifo” mavzusida o‘tqaziladigan “Asal sayli” munosabati bilan yig‘ilib turibmiz.

Bugungi o‘tkaziladigan sayilga taklif etilgan mehmonlar asosan tashrif buyurdilar. Shu munosabat bilan “Asal – shifo” nomidagi sayilimizni ochiq deb e‘lon qilamiz va so‘zni Jizzax viloyati hokimi o‘rinbosari.....ga beramiz.

(Xokim o‘rinbosarining so‘zi)

Sayilning tashkil etilishi va uning mohiyati haqida fikr bildiriladi.

So‘z asalchilar uyushmasi raisiga beriladi.

Bunda soʻz viloyatidagi asalchilar uyushmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va shuningdek, asalning olinishi va uning inson salomatligi uchun foydali xususiyatlari toʻgʻrisida fikr bildiriladi.

Soʻz asalchilar sulolasi vakiliga beriladi.

Bunda koʻp yillardan buyon asalchilik bilan shugʻullanib kelayotgan va avloddan avlodga oʻtib kelayotgan (ustoz va shogird) anʼanasini davom ettirish boʻyicha soʻz ketadi.

Badiy qism

Boshlovchi tomonidan navbat Akademik va xalq jamoalari direksiyasi xonandalariga beriladi va ular oʻzlarining dilrabo kuy-qoʻshiqlari bilan sayl qatnashchilarini xushnud etadilar.

Konsert yakunida sayilda oʻzlarining mahsulotlari bilan ishtrok etgan tadbirkorlar viloyat, shahar hokimiyatlarining qimmatbaho hamda faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadilar.

Boshloʻvchi: Aziz yurtboshlar va shahrimiz mehmonlari, barchamizga sihat-salomatlik, tadbirkorlik faoliyatingizga baraka va omad tilagan holda bugingi tadbirimizni yakunlaymiz. Xayr, sogʻ-omon boʻling!

“Samarqand nonlari”

III anʼnaviy viloyat koʻrik-tanlovining ssenariysi

“Samarqand nonlari” III anʼnaviy viloyat koʻrik-tanlovini oʻtqazishdan asosiy maqsad, “Bu muqaddas vatanda azizdir inson” ezgu gʻoyani oʻzida mujassam etgan, biz uchun eng buyuk, eng aziz qadriyat boʻlmish mustaqillik mohiyati va uning tarixiy ahamiyatini ochib berish, tarixan shakillangan milliy qadriyatlarimizni, jumladan, nonvoylik kasbini aholi oʻrtasida yuksak darajada eʼzozlanishi, uning yosh avlod tomonidan davom ettirilishi va Samarqand nonlarining mamlakatimizda hamda butun dunyoda mashhurligini saqlab qolish, shuningdek, milliy urf-odatlarimizni, anʼanalarimizni yanada jonlantirish, tadbirni chinakam milliy va xalqchil ruhda oʻtkazish hamda viloyatimiz nonvoylarning bugingi kunda yerishayotgan yutuqlari va bunyodkorlik ishlarini koʻrsatishdan iboratdir.

Sahnaning bezatilishi

Tadbir o'tadigan asosiy maydonda ko'zga ko'rinarli qilib "Samarqand nonlari III an'anaviy viloyat ko'rik-tanloviga xush kelibsiz!" Shiori osib qoyiladi.

2010 yil 17 avgust kuni Samarqand shahridagi Mustaf o Kamol Otaturk ko'chasi bayramona bezatiladi. Kocha atrofida tadbirga hamohang, rang-barang bayroqlar o'rnatiladi, ko'chani kirish qismida bezatilgan ramziy darvoza o'rnatilgan hamda ko'chani ikki yonida non mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar va tashkilotlar, viloyat, shahar, tumanlarning non rastalari o'rnatilgan. Ularning tepasiga "Samarqand nonlari" ta'riflangan, tasvirlangan pannolar osiladi.

Jarchilar, karnay-surnaychilar nog'arachilar va doirachilar barchani bayramga chorlaydilar. Musiqalar ostida bezatilgan sahnaga boshlovchilar chiqib keladi.

Boshlovchi qiz: Non Alloh jamolin ko'rgan deydilar,

Yuzlari o'lligi shundan deydilar.

Xar qayda ko'zlarga surib yeydilar,

Tabarruk luqmadir Samarqand noni.

Boshlovchi yigit: Bugun farog'atga shukrona eting,

Hayratu himmatning tushib mayliga.

Bayramona ruhda jo'shib sayr eting,

Marhabo nasiba va non sayliga.

Boshlovchi qiz: Assalomu alaykum, aziz shahrimiz mehmonlari hamda hamshaharlar! Bugun viloyatimiz xalqi uchun ajoyib bir bayram. Bugun shu mo'tabar go'zal zaminda yashayotgan har bir inson qalbi g'urur va iftixorga to'la. Viloyatimiz nonvoylari tomonidan yetishtirilayotgan nonlar o'zining mazasi, ta'mi va xushbo'yli bilan butun dunyoga mashhurdir.

Boshlovchi yigit: "Samarqand nonlari" viloyat ko'rik-tanlovining an'anaga aylanib borishi barchani quvontirmoqda. Chunki, ular o'rtasida o'zaro tajriba almashish, non yetishtirish borasida yoshlarga tavsiyalar berib borilmoqda.

Boshlovchi qiz: Aniq ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda jonajon Samarqandimizda 20 xil non turlari mavjud ekan. Ular Osiyoyi non, Shirmon non,

Uy noni, Obi non, Gijda non, Jizzali non, Sovgʻayi non, Patir non, Qatpatir non, Zogʻara non, Yogʻli kulcha, Lochira non, Qozon patir, Shirmon patir, Koʻk patir va boshqa nonlar shular jumlasidandir.

Boshlovchi yigit: shoir tili bilan aytganda:

Guldoru bezakdor sedanali non,

Shirmoyi, lochira, durdonali non.

Obi non, sovgʻoyi non jizzali non,

Taʼrifi turfadir Samarqand noni.

Boshlovchi qiz: Albatta Samarqand nonini qancha tariflasang shuncha oz!

Chunki, Safar tadoriki tushsa har kimga,

Nogoh joʻnar boʻlsa agar Qiringa.

Londanga, Parij va Rimga

Eng aziz tuhfadir Samarqand noni.

Boshlovchi yigit: “Samarqand nonlari” III anʼanaviy viloyat koʻrik-tanlovini ochib berish va ishtrokchilarni tabriklash uchun soʻz viloyat hokimi.....ga.

(Viloyat hokimining tabrigidan soʻng “Samarqand nonlari” III anʼanaviy viloyat koʻrik- tanlovi Hakamlar hayati aʼzolari viloyat hokimi bilan birgalikda tanlovda ishtrok etayotgan korxonalar, tashkilotlar va shaxar, tumanlarning koʻrgazmalarini boholash uchun koʻrib chiqadilar.)

Hakamlar hayaʼti aʼzolari koʻrik-tanlov ishtrokchilari koʻrgazmalarini koʻrib chiqishiga qadar viloyatimizning maxsus konsert dasturi namoyish etiladi (konsert dasturi ilova qilinadi).

Boshlovchi qiz: “Samarqand nonlari” III anʼanaviy viloyat koʻrik-tanlovi gʻoliblarini eʼlon qilish uchun soʻz Hakamlar hayati raisi, viloyat hokimligi Oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi boshqarmasi boshligʻiga beriladi.

Koʻrik tanlov gʻoliblariga viloyat hokimligi nomidan esdalik sovgʻalari topshiriladi. Milliy kiyimdagi qizlar gʻoliblarga gullar taqdim etishadi.

Boshlovchi yigit: “Samarqand nonlari” III an’anaviy viloyat ko‘rik-tanlovi g‘oliblari va qatnashchilarini yana bir bor tabriklaymiz. Kelgusi yilda uchrashguncha xayr! Deb bayram sayillariga yakun yasaladi. Shu yusinda madaniy tadbirlarni uyushtirish xalqimizga yanada zavq shavq bag‘ishlaydi.

II BOB O‘zbekistonda istirohat va ko‘ngilochar muassasalar tizimini boshqarishning huquqiy asoslari

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda 322-sonli “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston hududi qulay tabiiy sharoiti, go‘zal manzarali joylari, mevali va manzarali bog‘-rog‘lari bilan dunyoga mashhur. Juda qadimdan bu o‘lkada bog‘ barpo etish odat tusiga aylangan. Xalqimizning «Yaxshidan bog‘ qolar» degan hikmatli so‘zi bor. Buning ma‘nosi juda chuqur. Birni kessang, o‘nni ek degan naql ham aynan daraxt bilan bog‘liq. Shundan kelib chiqib xalqimizni bog‘lar bunyodkori, bog‘boni desak bo‘ladi. Dam olib hordiq chiqarishning eng samarali yo‘li ham bog‘lar, parklar bilan chambarchas bog‘liq. Madaniy-ma‘rifiy maskan sifatida madaniyat va istirohat bog‘larining faoliyati aholining dam olib hordiq chiqarishlari uchun eng qulaydir. Chunki bevosita tabiat qo‘ynida tashkil etilgan bunday bog‘lar juda ko‘p vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, ijodkorlik, amaliy san‘at bilan bog‘liq, sport bilan bog‘liq tadbirlarni hordiq soatlarida tashkil etish uning keng imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Bundan tashqari ommaviy bayram tadbirlari, sayillar, festivallar, do‘stlik kechalarining parklarda tashkil etilishi juda katta samara beradi. Qadimda bog‘lar odamlar yashab turgan joylardan chetroqda, katta sayhonlik, qiradirlarda maxsus tashkil etilgan bo‘lsa, hozirda katta shaharlar ichida madaniyat va istirohat bog‘larining faoliyat yurgizayotganini ko‘ramiz. Bu bog‘larning aynan aholi turar joylariga yaqin bo‘lishi ularning dam olishlari uchun imkoniyatdir.

Ushbu qaror madaniyat va istirohat bog'larining moddiy texnik bazanisi mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish masalalarini samarali xal etish muxim xuquqiy xujjat sanaladi. Qaror mazmun-moxiyatiga e'tibor bersak quyidagilar asosiy vazifa etib belgilandi. Jumladan;

- ko'rkam joylarda joylashtirish, manzarali daraxtlar va har xil gullar ekish orqali bog'ning kamida 50 foiz umumiy maydoni sathida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- attraksionlar va ko'ngilochar o'yinlar qurilmalarining ixcham, qulay va zamonaviy turlarini sanitariya va yong'in xavfsizligi qoidalariga hamda jamoat tartibi talablariga rioya qilgan holda o'rnatish;
- aholi, ayniqsa bolalar hamda o'smir yoshlarning madaniy dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bolalarning mo'jaz sport maydonchalari, attraksionlar, suv havzalari, shuningdek raqs va ko'chma sirk uchun mo'ljallangan maydonchalar, amfiteatr, shinam o'rindiqlar hamda savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari barpo etish.
- Madaniyat va istirohat bog'lari hududida namunaviy loyihalar talablariga rioya etilgan holda, madaniy va hordiq chiqarish obektlarini joylashtirish yuzasidan tuman (shahar) hokimlarining shaxsan javobgarligi belgilab qo'yilsin.
- Dasturni amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochilar etib Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari belgilansin hamda ularning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklansin:
- madaniyat va istirohat bog'lari mol-mulkini to'liq xatlovdan o'tkazish, mavjud bino va inshootlar, attraksionlar va boshqa turdagi vositalardan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha zarur choralar ko'rish hamda ularning asossiz hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;

- yangi madaniyat va istirohat bog‘larini tashkil etish, mavjudlarini kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash bo‘yicha manzilli hududiy dasturlarni uch oy muddatda ishlab chiqish va tasdiqlash hamda har bir madaniyat va istirohat bog‘i bo‘yicha texnik-iqtisodiy asosnomani tayyorlash;
- madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bog‘liq amaliy ishlarni moliyaviy ta‘minlashda tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanish, bunda bog‘ hududidagi yerlarni (namunaviy loyihada ko‘zda tutilgan taqsimotga rioya etgan holda) attraksionlar, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari qurish uchun tanlov savdosi asosida tadbirkorlarga ijaraga berish;
- Dasturni amalga oshirish uchun mahalliy byudjet daromadlarining oshirib bajarilgan qismini hamda hokimliklarning byudjetdan tashqari va homiylar, investorlar mablag‘larini jalb qilish va maqsadli yo‘naltirish.
- madaniyat va istirohat bog‘lari tuman (shahar) hokimliklari muassisligida davlat korxonasi shaklida tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi;
- madaniyat va istirohat bog‘larining faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha xarajatlar ularning o‘z daromadlari, korxonalar va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan daromadlar hisobidan amalga oshiriladi;
- zarur hollarda, madaniyat va istirohat bog‘larining ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish hamda bog‘bonlarga ish haqi to‘lash bilan bog‘liq xarajatlari mahalliy byudjetlar parametrlarida obodonlashtirish xarajatlari uchun nazarda tutiladigan mablag‘lar doirasida moliyalashtirilishi mumkin.

2.2. 2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturining amalga oshirish mexnizimi.

Madaniyat va istirohat bog‘lari Vatanimizda an’anaviy tabiiy-madaniy maskan sifatida azaldan mashhur bo‘lib kelgan. Hozir ham bu go‘zal maskanlar ko‘pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi.

Endilikda xalqimizning madaniy bog‘dorchilik an‘analari qayta tiklanmoqda. Madaniyat va istiroxat bog‘larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorbog‘ yaratish an‘analaridan foydalanilmoqda. Respublikamizda nafaqat tarixda mashhur bo‘lgan bog‘lar, masalan, Samarqanddagi Amir Temur bog‘lari tiklanmoqda, shuningdek, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ kabi mashhur yangi bog‘lar barpo etilmokda. An’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan yangi bog‘lar Namangan, Farg‘ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Respublikamizdagi 120 dan ortiq bog‘larning 3/4 qismi, ya’ni 90 tasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatmokda.

Yurtboshimizning **“Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”** kitobida shunday ta’kidlangan:

Biz odamlarning ma’naviy tarbiyasini o‘ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko‘zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz.

Masalaning boshqa tomoni - ma’rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to‘laqonli hayoti uchun

nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o'choqlarini ko'paytirish, ularning sharoitini yaxshilash.

Bog' – insonning tabiat bilan yaqin munosabatni o'rnatishi, tabiiy sharoitda madaniy dam olishi va ruhiy zavq olishi uchun xizmat qiladigan madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda bog' barpo etish juda buyuk savob ishlardan biri bo'lib hisoblangan va qadimdan ajdodlarimiz tomonidan yurtimizning turli hududlarida bog'lar yaratilgan.

Buyuk bobomiz Amir Temur o'z tuzuklarida “Xon bo'lsang ham bog' yarat, gado bo'lsang ham bog' yarat”,- deb bejiz yozib qoldirmagan. U o'z so'zlariga amal qilgan holda Samarqand shahri va uning atrofida 12 ta bog'ning bunyod etilishiga boshchilik qilganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar mavjud.

Yurtimizning Samarqand, Buxoro, Xorazm, Andijon, Namangan, Farg'ona va boshqa hududlari qadimdan o'zining ajoyib bog'-rog'lari va oromgohlari bilan mashhur bo'lgan.

Bog'larning barpo etilishida yurtimizdagi tabiiy sharoit ham muhim o'rin tutadi. YA'ni, bahorning dastlabki kunlaridanoq ob-havoning isishi va to kech kuzgacha shunday holatning saqlanib qolishi aholining va xorijiy mehmonlarning tabiat bag'rida yayrab xordiq chiqarishi uchun sharoit yaratilishini talab etgan. Yurtimiz bog'larida xalq sayillari, ommaviy tomoshalar uyushtirilib, bu tadbirlar nomoddiy madaniy merosimizning ajoyib namunalari bo'lgan dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik, xalq o'yinlari bilan boyitilgan, askiya kechalari, mushoiralar uyushtirilgan. Hozirda esa bog'lar umumxalq bayramlarini nishonlash maskanlaridan hisoblanadi.

“Barkamol avlod yili” munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturida yurtimizning har bir tuman va shaharida kamida bittadan zamonaviy madaniyat va istirohat bog‘ining faoliyat yuritishiga erishish, ularning barchasini zamonaviy attraksionlar va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash orqali aholi, ayniqsa, yoshlarning madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, bog‘larni zamonaviy talablarga javob beradigan, turli yosh va aholi guruhlarining dam olish maskaniga aylantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Ushbu maqsadlarga erishishda madaniyat va istirohat bog‘larini zamonaviy attraksion va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash, ularda zamonaviy ko‘ngilochar obektlarni barpo etish qatorida istirohat bog‘lari bilan bog‘liq azaliy an‘analarimizni ham saqlab qolish va ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanishni tashkil etish ham zarur.

Dasturdan ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun:

madaniyat va istirohat bog‘lari bilan bog‘liq huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, bog‘lar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini yaratish;

madaniyat va istirohat bog‘larida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlanishini maqsadli tashkil etish, u yerda ishlayotgan xodimlarning malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

madaniyat va istirohat bog‘larida o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar ko‘lamini oshirish, yangi shakl va uslubdagi madaniy va sport tadbirlarining o‘tkazilishiga erishish;

madaniyat va istirohat bog‘larida aholining barcha qatlamlari uchun, ayniqsa, oilaviy dam olishga xizmat qiladigan sharoit yaratish, xususan:

sokin hududda aholining tabiat qo‘ynida xotirjam dam olishini tashkil etish, bolalarda tabiatni asrash tuyg‘usini shakllantirish;

bolalar maydonchalarida kichik yoshdagi bolalarning zavqli o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishiga sharoit yaratish,

ko‘rgazma zallarida turli tasviriy san’at va hunarmandchilik mahsulotlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazish orqali yoshlarda estetik didni tarbiyalash;

estrada maydonlari va amfiteatrlarda mumtoz, estrada, folklor yo‘nalishlaridagi konsert dasturlarining namoyishini tashkil etish,

aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmatining turlarini ko‘paytirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Ushbu vazifalarning to‘liq amalga oshirilishi uchun madaniyat va istirohat bog‘lari hududi va ularda joylashtiriladigan obektlarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va shu asosda uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog‘larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish, namunaviy loyihalarning joylardagi mavjud bog‘larni rekonstruksiya qilish loyihalariga moslashtirish lozim bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi markaziy madaniyat va istirohat bog‘lari - birinchi tipda, yirik (aholi soni va bog‘ maydoni e‘tiborga olinadi) shahar va tumanlardagi madaniyat va istirohat bog‘lari – ikkinchi tipda, hududlardagi kichik hajmdagi bog‘lar uchinchi tipda bo‘lishi hisobga olinib, uchta tipdagi madaniyat va istirohat

bog'larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bitta madaniyat va istirohat bog'ining maydoni ikki hudud:

aholining tinch tabiat qo'ynida dam olishi va hordiq chiqarishiga xizmat qiluvchi sokin hudud;

aholining faol dam olishi uchun xizmat qiladigan gavjum hududga ajratilishi tamoyillariga amal qilish zarur.

Shu bilan bir qatorda:

sokin hudud egallagan maydonning eng kamida 65 foizi daraxtzor, harakatlanish yo'laklari, hordiq uchun o'rindiqlar, shuningdek obodonlashtirilgan yerlarga to'g'ri kelishi, qolgan 35 foiz maydonga boshqa obektlarni joylashtirish maqsadga muvofiq.

Madaniyat va istirohat bog'lariga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda aholining mazmunli dam olishini tashkil etish uchun hozirgi kunda juda kam bog'lardagina faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilochar maskanlarning yangi turlarini barpo etish vazifasini ham amalga oshirish zarur. Yozgi estrada maydonchalari, sun'iy suv havzalari, ko'chma sirk tomoshalarini namoyish etish maydonchalari, bolalar shaharchalari, raqs maydonchalari, xalq amaliy san'ati namunalarinining namoyishi va savdosi uchun xizmat qiladigan obektlar shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida:

Respublikadagi 148 ta madaniyat va istirohat bog'larining sonini 77 taga ko'paytirib, ularning soni 225 taga yetkaziladi;

2015 yilgacha muddatda barcha madaniyat va istirohat bogʻlari zamonaviy koʻrinishga keltirilib, attraksionlar va kichik oʻyin qurilmalari bilan jihozlanadi;

madaniyat va istirohat bogʻlarining hududiga va ularda boʻlishi lozim boʻlgan obektlarning tarkibiga qoʻyiladigan talablar asosida barcha bogʻlar tartibga keltiriladi;

madaniyat va istirohat bogʻlarining yuridik maqomi, ularning mulkchilik shakli, boshqaruv va boshqa tashkiliy jihatlarini tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar takomillashtiriladi;

madaniyat va istirohat bogʻlari malakali kadrlar bilan taʼminlanadi;

bogʻlarda tashkil etiladigan madaniy-ommaviy, sport tadbirlarining koʻlami va sifat darajasi ortadi;

bogʻlarga tashrif buyuruvchilarning soni ortadi;

madaniyat va istirohat bogʻlari yagona andoza asosida pasportlashtiriladi, har bitta bogʻning faoliyatini oʻrganish imkoniyatini yaratish uchun ularga guvohnomalar beriladi, buning natijasida barcha bogʻlarning tayyorgarlik darajasi nazorat ostiga olinadi;

servis xizmatining yangi turlari tashkil etiladi;

yangi ish oʻrinlari ochiladi;

voyaga yetmaganlarning boʻsh vaqtlari mazmunli oʻtkazilishiga erishiladi.

Madaniyat va istirohat bogʻlarining tashkiliy-huquqiy shakli, qaysi tashkilot yoki muassasaga boʻysunishidan qatʼiy nazar, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, uslubiy va amaliy yordamni tashkil etish, mavjud meyoriy

hujjatlarni takomillashtirib borish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga yuklanishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, bog'larda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarning samaradorligi oshirish, bog'larning ushbu yo'nalishlardagi faoliyatini yo'naltirish maqsadida Vazirlik qoshida Respublika madaniyat va istirohat bog'lari direktorlarining jamoatchilik Kengashi faoliyatini yo'lga qo'yish, kelajakda ushbu Kengash faoliyatini yanada takomillashtirish orqali Madaniyat va istirohat bog'lari uyushmasini tashkil etish ham rejalashtirilmoqda.

Dasturni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining byudjetdan tashqari mablag'lari, investorlar hamda homiyalar mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi belgilangan. Shu maqsadda Dasturda belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni aniqlash va uzluksiz moliyalashtirishni tashkil etish ishlari mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklatilgan.

Madaniyat va istirohat bog'larida barcha tegishli sharoitlar yaratilishi natijasida o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi va bu o'z navbatida qo'shimcha mablag'larsiz faoliyat ko'rsatish, zarur hollarda esa o'z faoliyatini kengaytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Aholiga ko'rsatiladigan servis xizmati turlarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish orqali bog'larga keluvchilarning soni muntazam ortib borishiga erishiladi.

X U L O S A

Madaniyat va istirohat bog‘lari—aholi madaniy hordiq chiqaradigan, turli bezakli daraxt va gulzorlar bilan jihozlangan, ko‘kalamzorlashtirilgan maskan. Madaniyat va istirohat bog‘ tuzish san‘atining o‘ziga xos uslublari asosida barpo etiladi. O‘zbekistonda Madaniyat va istirohat bog‘lari shahar hududining hajmi, me‘moriy qiyofasi va tabiiy sharoitiga qarab tashkil qilinadi. Kichik shaharlarda bitta, katta shaharlarda bir necha, aholisi 500 mingdan ortiq shaharlarda esa umumshahar ahamiyatiga ega bo‘lgan bog‘lardan tashqari, shahar hududidagi har bir tumanning madaniyat va istirohat bog‘i bo‘lishi mumkin. Unda aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish katta o‘rin tutadi. Maydonlardagi ochiq estrada sahnalarida professional teatr va eng yaxshi havaskorlik jamoalarining spektakl va konsertlari, dorboz, polvon va masxarabozlarning tomoshalari, askiya kechalari uyushtiriladi, kinofilmlar namoyish qilinadi. Ommaviy sayil, karnaval, turli sport musobaqalari va boshqalar tashkil etiladi. Bolalar uchun maxsus joy ajratilib, qiziqarli attraksionlar bilan jihozlanadi.

Madaniyat va istirohat bog‘lari Vatanimizda an‘anaviy tabiiy-madaniy maskan sifatida azaldan mashhur bo‘lib kelgan. Hozir ham bu go‘zal maskanlar ko‘pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi.

Endilikda xalqimizning madaniy bog‘dorchilik an‘analari qayta tiklanmoqda. Madaniyat va istiroxat bog‘larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorbog‘ yaratish an‘analaridan foydalanilmoqda. Respublikamizda nafaqat tarixda mashhur bo‘lgan bog‘lar, masalan, Samarqanddagi Amir Temur bog‘lari tiklanmoqda, shuningdek, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ kabi mashhur yangi bog‘lar barpo etilmokda. An‘anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan

yangi bog‘lar Namangan, Farg‘ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Respublikamizdagi 120 dan ortiq bog‘larning $\frac{3}{4}$ qismi, ya'ni 90 tasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” T.; 2008
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 322-sonli Qarori
3. Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. –T., 2007.
4. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. –T.: G‘.G‘ulom, 2002.
5. Jabbarov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994.
6. Istiqlol va milliy teatr. Farmonlar, qarorlar, nutqlar to‘plami. -T., 2002.
7. Karabayev U.X. Etnokultura. – T., 2005.
8. Shodiyev B. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari. //Doktor. diss... –T., 2007.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. /M.Ma’rifov tahriri ostida. –T., 1981.
10. O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar). O‘zbekiston badiiy akademiyasi san’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. –T.: Sharq, 2001.
11. Qoraboyev U.H. O‘zbek xalqi bayramlari. – T., 2002.

Internet saytlari

1. www.bilim.uz.
2. www.philosophy.ru.
3. www.history.ru.
4. www.gov.uz - Hukumat sayti.
1. www.press-service.uz - Prezident sayti.
2. www.ziyo.edu.uz - Vazirlik sayti.